

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

2.1.

**KASBIY KREATIVLIK VA UNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

MODULI BO‘YICHA O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

**Malaka oshirish
yo‘nalishi:**

**jismoniy tarbiya fani
o‘qituvchisi**

**Tinglovchilar
kontingenti:**

**kasb-hunar maktablari jismoniy
tarbiya fani o‘qituvchilari**

Toshkent - 2023

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

A. Akmalov - “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini professori v.b., p.f.n., dotsent

Taqrizchilar:

F. Xodjaev - Institutning “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasini professori, p.f.n., professor

G. Karimova - PROFI UNIVERSITY xususiy oliy ta’lim muassasasining “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2023 yil -yanvardagi 1-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqildi va Institut Ilimiy Kengashning 20__yil __ _____da o‘tkazilgan __ sonli qarori bilan nashr qilishga tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

J.Pulatov

MUNDARIJA

I. ISHCHI O‘QUV DASTURI.....	
II. MA‘RUZA MATNLARI . NAZARIY MATERIALLAR	
III. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	
IV. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI.....	
V. GLOSSARIY.....	
VI. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALADIGAN INTER FAOL TA‘LIM METODLARI	
VII. MODUL BO‘YICHA TESTLAR	
VIII. XULOSA.....	
IX. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	

ISHCHI DASTUR

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi:

- tinglovchilarda jismoniy tarbiya darslarining sifat va samaradorligini oshirishda kasbiy kreativlik va uni rivojlantirish metodikasidan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

Modulning vazifasi:

- kreativ pedagogika tushunchasi;

jismoniy tarbiya va sport sohasida kreativ pedagogikaning ahamiyati.

- jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishda kasbiy kreativlik va uni rivojlantirish metodikalarning o'ziga xosligi va qo'llanilish sohalari bo'yicha ma'lumotlar berish;

- jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishda kasbiy kreativlik va uni rivojlantirish metodikalardan samarali foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

“Kasbiy kreativlik va uni rivojlantirish metodikasi” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- kreativ pedagogika tushunchasi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kreativ pedagogikaning ahamiyati.

- jismoniy tarbiya va sportda pedagog faoliyatining vazifalari;

- pedagogik kreativlikni rivojlantirishning nazariy asoslari;

- kasbiy kompetentlik va uning sifatleri;

- innovatsiya va novatsiya tushunchalari;

- jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirishda kreativ metodlarning o'rni va imkoniyatlari bo'yicha ***bilimlarga*** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- innovatsion -metodik loyihalar;

- jismoniy tarbiya va sportda online platformalar yaratish;

- ta'lim samaradorligini baholashda kreativ ta'lim usullari va texnologiyalari;

- “innovatsiya” va “novatsiya” tushunchalarini bir-biridan farqlay olish;

- kreativlikni oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyasi turlaridan samarali foydalana olish ***ko'nikmalarga*** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya darslarini o‘tkazishda kreativ fikrlay olish;
- jismoniy tarbiya darslarini o‘tkazishda muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llay olish;
- kreativ ta’lim metodlarini o‘quv jarayoniga samarali tatbiq eta olish;
- *malakalariga* ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- muammoli ta’lim texnologiyalar orqali jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya darslarini o‘tkazishda kreativ pedagogik muhitni boshqarish bo‘yicha *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uzviyligi

“Kasbiy keativlik va uni rivojlantirish metodikasi” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”, “O‘quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik”, “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” o‘quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning sport ta’limidagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	Ko‘ chma mashg‘ ulot	
1	Jismoniy tarbiya va sport sohasida kreativ pedagogikaning ahamiyati.	2	2	2			

2	Innovatsion - metodik loyihalar.	2	2		2		
3	Jismoniy tarbiya va sportda online platformalar.	2	2		2		
3	Mualliflik dasturlari (Konstruktor dasturlar).	4	2		2		2
	Jami:	10	8	2	6		2

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sohasida kreativ pedagogikaning ahamiyati.

Reja:

- 1.1. Kreativ pedagogika tushunchasi.
- 1.2. Pedagogning o‘quv mashg‘ulotiga kreativ yondashuvi va unga qo‘yilgan didaktik talablar.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida kreativ pedagogikaning ahamiyati. Kreativ pedagogika tushunchasi. Pedagogning o‘quv mashg‘ulotiga kreativ yondashuvi va unga qo‘yilgan didaktik talablar.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

2-mavzu. Innovatsion - metodik loyihalar.

Reja:

- 2.1. Innovatsion - metodik loyiha tushunchasi.
- 2.2. Pedagogning kasbiy kreativligini oshirishda innovatsion - metodik loyihalarni o‘rni va samaradorligi.

Innovatsion - metodik loyiha tushunchasi. Pedagogning kasbiy kreativligini oshirishda innovatsion - metodik loyihalarni o‘rni va samaradorligi. “Innovatsiya” va “novatsiya” tushunchalari.

3-mavzu. Jismoniy tarbiya va sportda online platformalar.

Reja:

- 2.1. Pedagogik faoliyatda online platforma tushunchasi.
- 2.2. Pedagogning kasbiy kreativligini rivojlanishida online platformalarni o‘rni va samaradorligi.

Jismoniy tarbiya va sportda online platformalar. Pedagogik faoliyatda online platforma tushunchasi. Pedagogning kasbiy kreativligini rivojlanishida online platformalarni o‘rni va samaradorligi.

4-mavzu. Mualliflik dasturlari (Konstruktor dasturlar).

Reja:

- 4.1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha
- 4.2. Muallif huquqi va foydalanish shartlari.

Mualliflik dasturlari (Konstruktor dasturlar). Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha. Muallif huquqi va foydalanish shartlari. Mualliflik dasturiy ta'minot: elektron darsliklar, video dars. Articulate Storyline, Adobe Captivate, CourseLab, ISpringPro, Lectora kabi dasturlar.

Mustaqil tayyorgarlik mazmuni

Tinglovchilar "Pedagogning kasbiy keativligi va uni rivojlantirish yo'llari", "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning turlari" mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni o'quv adabiyotlari va internet resurslaridan foydalangan holda mustaqil o'zlashtiradilar.

Dasturning axborot - metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari, turli elektron hamda qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

**MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA’LIM METODLARI**

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

O‘quv – mashq jarayonining sifat va samaradorligi uning shakliga emas, qo‘llanilayotgan metodlarga ham bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida o‘qitish metodlari markaziy o‘rin egallaydi.

An’anaviy mashg‘ulot shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun mashg‘ulot jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

Interfaol metodlar deganda - ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, amaliy

mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod mavzu bo'yicha sportdagi tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach trener - o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Mavzu: “

Jismoniy tarbiya ta'limidagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Tushunchalarga mos keladiganlarini yozing	Qo'shimcha ma'lumot
Pedagog		
Kompetensiya		
Kreativlik		
Strategiya		
Taktika		
Insonparvarlik		
Sport razvedkasi		
Autotrening		

--	--	--

“INSERT” JADVALI

Mustaqil ta’lim vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida tinglovchi faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi: Tinglovchilar “Insert” jadvalini to‘ldirish qoidasi bilan tanishadilar va alohida o‘zlari to‘ldiradilar.

Matnni o‘qish jarayonida olgan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtiradilar va jadvalda belgilangan belgilarga muvofiq jadval ustunlariga “kiritadilar”.


“V” - men bilgan ma’lumotlarga mos;

“ - “ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

Insert jadvali



V	+	-	?

“KEYS – STADI ” TEXNOLOGIYASI

“Keys – stadi” - inglizcha “case” va “stadi” soʻzlarining birikuvidan hosil qilingan boʻlib, (“case” – oʻzbek tilida aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan metodidir. “Keys – stadi” boshqa taʼlim metodlaridan farqli ravishda real vaziyatlarni oʻrganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea - hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalaniladi. Agar sport oʻquv jarayonida maʼlum bir maqsadga erishish yoʻli sifatida qoʻllanilsa, metod xarakteriga ega boʻladi. Sportda aniq jarayonni tadqiq etishda bosqichma - bosqich, maʼlum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni oʻzida aks ettiradi.

Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“KEYS METODI” NI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI



«Klaster» metodi

«Klaster» metodi- taʼlim oluvchilarga ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq oʻylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil gʻoyalar oʻrtasidagi aloqalar toʻgʻrisida

fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yunaltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Unday foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoiyili bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromida bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar guruh asosida tashkil etilgan mashg'ulotlari jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni o'yg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodini amalga oshirish qoidalari:

- nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing;
 - fikringizning sifati to'g'risida uylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring;
 - yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihtlariga e'tibor bermang;
 - belgilangan vaqt nixoyasiga yotmaguncha, yozishdan tuxtamang;
 - agar ma'lum muddat biror bir g'oyani uylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang;
 - bu harakatni yangi g'oya tug'ulguncha davom ettiring;
 - muayan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling;
 - g'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarning ko'rsatishini cheklamang.
- bo'ladi.

“Chaynvord” metodi

“Chaynvord” metodi- ta'lim oluvchilarning bilimlarini charhlashga qaratilgandir. Ushbu metoddan yangi mavzuni o'tishdan oldin ta'lim oluvchilarning birlamchi bilimlarini aniqlash va faollashtirish maqsadida, yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida ishlatiladi.

Metodning amalga oshirishi: Ta'lim oluvchilar raqamli kartochkalar yordamida 4-5 ta kichik guruhlariga bo'lib olinadi. Har bir kichik guruhga oldindan tayyorlangan chaynvord tuzilgan kartochka-vazifalar tarqatiladi. Metoddan asosiy maqsad berilgan vazifani qaysi guruh tez va to'g'ri bajarish va bilimlarini aniqlashdir. Chaynvord - kartochkaning chap tomonida savollar berilgan bo'lib, o'ng tomoniga esa savollarga javob yozilishi kerak.

Yozish sharti qo‘yidagicha: birinchi savol javobining oxirgi harfi ikkinchi savol javobining bosh harfidan boshlanishi kerak. Yozish shartlari yuqorida berilgan shartlar asosida bajariladi.

To‘g‘ri javoblar soniga qarab berilgan vazifalar baholash mezonlari asosida baholaniladi.

Mazkur metod qo‘llanilganda ta‘lim oluvchilarning faolligi oshadi, mavzuga bo‘lgan qiziqishi yuqori darajada bo‘ladi hamda o‘z bilimlarini baholash imkoniyati bo‘ladi. Ushbu metodni yakka tartibda, juftlikda va kichik guruhlarda amalga oshirish mumkin.

“Aqliy hujum” metodi

“Aqliy hujum” (g‘oyalarni ishlab chiqish) metodida ishtirokchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar uni yechish uchun shaxsiy g‘oyalarni ilgari suradilar.

Aqliy hujum, oldindan ularning tanqidisiz, mavzuga nisbatan erkin fikrlarni ishlab chiqishdagi harakatidir “Aqliy xujum” metodi serqirra qo‘llanish xususiyatiga ega “Aqliy hujum” metodining vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g‘oyalarni yaratishdir (kichik guruhning birgalikdagi kuchi - uning alohida a‘zolarining kuchlari yig‘indisidan ko‘p bo‘ladi). “Aqliy hujum” metodini amalga oshirish muammoni hal qilayotgan kishilarning ko‘prok aqlbovar qilmaydigan va hatto fantastik g‘oyalarni yaratishga undaydi. G‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa, ularning hech bo‘lmaganda bittasi ayni muddao bo‘lishi mumkin. Bu aqliy hujum negizidagi tamoyildir. Aqliy hujum to‘xtatilgandan so‘ng, barcha aytilgan g‘oyalar muhokama qilinib, eng maqbuli tanlanadi. Yakka tartibda yoki juftlikda, amaliy mashg‘ulotlarda esa 4-7 kishidan iborat kichik guruhlarda shuningdek, guruh bo‘yicha ham o‘tkazish mumkin. Aqliy hujum mashg‘ulotlarda ta‘lim oluvchi-tinglovchilar faolligini oshirishga, charchoqni yo‘qotishga, g‘oyani izlashga sharoit yaratadi.

Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar:

1. Ishtirokchilarni majburiy bo‘lmagan tarzda joylashtiring.
2. Fikrlarni bayon qilish uchun qog‘oz va yozuv taxtasini tayyorlang.
3. Aqliy hujumning ishtirokchilariga muammoni yetkazing.
4. Ish tartibini aniqlang:
 - a) fikrlar tashlanganda hech qanday baholashlar bo‘lmasin.
 - b) doimiy fikrlash ozodligi.
 - v) qancha aqlli fikr ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi.
 - g) boshqalarning fikrlarini rivojlantiring.
5. Fikrlar to‘g‘risida surishtiring va tezda ularni yozing.
6. Kog‘oz varag‘i to‘ldirilganda, uni muhokama uchun qo‘ying.
7. O‘z g‘oyalaringizni qo‘shib yangi g‘oyani rag‘batlantiring.

8. Boshqalarning fikrini tanqid qilish yoki ustidan kulish kerak emas, kulgiga yo'l quymang.

“FSMU” metodi

Ushbu metod munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o'tkazishda yoki o'quv reja asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach, qo'llanilishi mumkin, chunki bu metod tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan qatorda ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarni tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Ushbu metod ta'lim beruvchi tomonidan tarqatilgan qog'ozga tinglovchilarning o'z fikrlarini aniq, qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Bu metod ko'yidagicha amalga oshiriladi:

har bir tinglovchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va mashg'ulot yakunida kichik guruhlarda ishlaydilar.

Har bir tinglovchiga FSMU metodining 4-bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F – FIKRINGIZNI BAYON ETNG

S – FIKRINGIZNI BAYONIGA SABAB KO'RSATING

M – KO'RSATGAN SABABINGIZNI ISBOTLAB MISOL
KELTIRING

U – FIKRINGIZNI UMUMLASHTIRING

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda ifoda etadilar. Vazifani bajarib bo'lgandan keyin, tinglovchilar kichik guruhlarga ajratiladi va guruhlarga FSMU yozilgan tarqatma material beriladi. Kichik guruhda har bir ta'lim oluvchi o'zining yozgan javobini o'qib tanishtiradi, so'ngra guruh azolari birgalikda muhokama qilib, umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.

FSMU metodining afzalliklari:

- ✓ o'z fikrini himoya qilishni o'rganadi;
- ✓ erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazisha olish qobiliyati rivojlanadi;
- ✓ ta'lim oluvchilar bahslashish madaniyati shakllanadi.

“Muammoli vaziyat” metodi

“Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

“Bahslashuv” texnologiyasi

Tinglovchilarning o‘zaro munosabatlarini yanada faollashtirish maqsadida bahslar tashkil etib turish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday bahslar tinglovchilarni o‘z fikrlarini jamlab olishga, hayotga va turli muammolarga bo‘lgan munosabatlarini aniqlab olishga katta yordam beradi. Bahs mavzularini tinglovchilarning o‘zlari tanlashlari va taklif etishlari mumkin. Bu mavzular ularni

bahsga chorlovchi, muammoli, qiziqarli bo'lishi kerak, aks holda bahs davomida tinglovchilar o'z fikrlarini bayon eta olmaydilar yoki bahsga qo'shilib o'z fikrlarini isbotlab, himoya qila olmaydilar. Bahslar tinglovchilarni ba'zi yanglish fikrlarga munosabat bildirishga o'rgatadi, atrofdagi bo'layotgan voqealarni tushungan holda to'g'ri sharhlashga, o'z fikrlarida turishga, noo'rin fikrlarga o'z vaqtida munosabat ko'rsatishga hamda har bir fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlab olishga, shu bilan bir qatorda hamkasblari bilan suhbat qilish, bahslashish, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olish madaniyatiga o'rgatadi.

KBI (kuzatish, bahslashish, ishontirish) texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchilarni hayotda faol o'rnini topshlarini, peshqadamlik va sardorlik sifatlarini, jamoada ishlash ko'nikmalarini, shuningdek, o'zgarlar fikrini hurmat qilgan holda dalil keltira olish, o'z fikrini isbotlay olish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish mahoratlarini hamda murosaga kelish, izlanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Bu texnologiya qo'llaniladigan mashg'ulot tinglovchilardan oldindan bo'ladigan tayyorgarlikni talab qiladi. Mashg'ulot mavzusi tinglovchilarga oldindan ma'lum qilinadi, vazifalarni bajarish uchun tayyorlanishga beriladigan aniq vaqt, mavzu mazmuni, uning murakkabligi va darajasiga qarab belgilanadi.

Ushbu mashg'ulot bahs - munozara uslubiga asoslangan bo'lib, o'zining aniq o'tkazilish vaqti va tartibiga egadir. O'qituvchi dastlab tinglovchilarni mashg'ulot o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtiradi va ularni kichik guruhlarga ajratadi.

INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING ASOSIY BESH QOIDASI

1. Ishlash uchun joyni tayyorlashga jiddiy qarash kerak. Bu avvaliga ko'ringandek oddiy masala emas. Auditoriyani shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirokchilar kichik yoki katta guruhlarda ishlash uchun o'tirishlariga oson bo'lishi kerak. Ya'ni tinglovchilarga jismonan qulay sharoit yaratilishi kerak.

2. Jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo'lish lozim. Bu haqda boshidan kelishib olish kerak va uni buzmaslik lozim. Masalan, hamma tinglovchilar har bir nuqtai nazarga sabrli bo'lib, so'z erkinligini, uning fikrini xurmat qilishlari kerak.

3. Tinglovchilarning guruhlarga bo'linishiga jiddiy e'tibor bering. Avvaliga, uni o'zi xohishiga ko'ra qurish kerak.

Keyin tasodifan tanlash tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq.

4. Tinglovchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo'lishi kerak. Tinglovchilarning psixologik tayyorgarligiga ko'maklashish lozim. Gap shundaki,

mashg'ulotga kelganlarning hammasi ham u yoki bu ish shakliga bevosita kirishishga ruhan tayyor emaslar. Bu borada mashq qilishlar, tinglovchilarning ishda faol ishtiroklari uchun doimiy rag'batlantirishlar, tinglovchining o'zini namoyon etish uchun imkoniyat yaratish foydali bo'ladi.

5. Interfaol metodlardan foydalanganda guruhda tinglovchilar soni ko'p bo'lmasligi kerak. Ishtirokchilar soni va ta'lim berish sifati bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Odatda agarda ishda ishtirokchilar soni 25 kishidan oshmasagina, ish samarali bo'ladi. Faqat shu shart bajarilganda eng maqbul tarkibi 4-6 kishidan iborat, kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin.

NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA KREATIV PEDAGOGIKANING AHAMIYATI.

Reja:

1.1.Kreativ pedagogika tushunchasi.

1.2.Pedagogning o‘quv mashg‘ulotiga kreativ yondashuvi va unga qo‘yilgan didaktik talablar.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida kreativ pedagogikaning ahamiyati. Kreativ pedagogika tushunchasi. Pedagogning o‘quv mashg‘ulotiga kreativ yondashuvi va unga qo‘yilgan didaktik talablar.

1.1.Kreativ pedagogika tushunchasi.

O‘rta maxsus professional ta‘lim tashkilotlarda jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagoglik kasbiy kamolotida g‘oyaviylik, kreativlik, yoshlarni jismoniy jihatdan chiniqtirib, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o‘rgatish bilan bir qatorda ularni kelajakdagi mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb - hunar egallashlariga ko‘maklashishi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy vazifalarni o‘rgatishi oliy maqsadidir.

Pedagog – ta‘lim – tarbiya jarayonida maxsus ma‘lumot bo‘yicha tayyorgarlikka ega katta bir avlod o‘z sohasi bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini quyi avlodga o‘rgatuvchi mutaxassis - ijodkor shaxsdir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuning (44 - moddasi) **“Pedagogik faoliyat shug‘ullanish huquqi”** bo‘lib unda: **“Tegishli ma‘lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma‘naviy- axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqiga ega.**

Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqiga ega. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga kayta tayyorlash kurslaridan o‘tgandan keyin ta‘lim tashkilotlarida (bundan oliy ta‘lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi. ” – deb e‘tirof etilgan.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi oldida turgan bosh vazifasi: o‘quvchi – yoshlarni jismonan tetik, xushchaqchaq, mehnat sevar, jasur, vatanparvar, axloqan pok, ma‘naviyatli barkamol bo‘lishi uchun o‘zining ilmiy, metodik, kasbiy mahorati bilan tarbiya berishdir.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi - yosh avlodni jismoniy jihatdan sog‘lom o‘sislarini, baquvvat bo‘lishlarini , aqliy , jismoniy mehnatga shuningdek Vatan

himoyasi uchun qo‘rqmas, jasur, harbiy bilimlardan biladigan qilib tayyorlash oliy maqsadidir.

Ta’lim muassasalari, jumladan kasb – hunar kollejlari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining aksariyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda asosiy vazifalari ta’lim-tarbiya jarayonini DTS talablari asosida tashkil etish va nazorat qilish, o‘quvchilarga o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo‘yicha zaruriy axborotlarni yetkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kreativ, kompetensiyaviy yondoshuvlarida quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- o‘quv dasturida o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta’lim-tarbiyaviy jarayonining va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

- maqsadga muvofiq ko‘zlangan natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo‘nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘l - yo‘riqlarini va qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash;

- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni oldindan bashorat qilish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga ko‘ra taqsimlashni rejalashtirish;

- ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash;

- ta’lim -tarbiya jarayonda o‘quvchilarning sub’ektivligini ta’minlash va faolligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish jarayonlarini loyihalashtirish;

- dars jarayonda foydalaniladigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash;

- ta’lim – tarbiya jarayonlarning uzluksizligi va uzviylikini ta’minlovchi chora-tadbirlarni belgilash;

- ta’lim muassasalari, oila va mahallaning o‘zaro aloqasini ta’minlash;

- pedagogik jarayonlarda ilg‘or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilish;

- DTS va davlat talablarini amaliyotda qo‘llash va uning monitoringini olib borish;

- o‘quvchilar o‘rtasida anketa so‘rovlari va suhbat o‘tkazish asosida axborotlar to‘plash va tahlil qilish;

- o‘quvchilar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko‘rib chiqish, yangilash;

- o'quvchilarning mustaqil ta'lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- o'quvchilarning o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Uzluksiz va sport ta'limi tizimida **“Kreativ pedagogika”** tushunchasi ta'lim - tarbiya jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlar samaradorligini ta'minlashda metodologik asos sifatida qo'llanilmoqda.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – pedagogning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy, intellektual kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z - o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib - o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta - sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Pedagogning kreativlik potentsiali - O'qituvchining ijodkorligi u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondoshuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda. Pedagogning **kreativlik potentsiali** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativlikni tavsifi: fikrining ravonligi; fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi; o'ziga xoslik (originallik); qiziquvchanlik; farazlar yaratish qobiliyati; fantaziyasi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi: tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati; bir qolipda fikrlamaslik; o'ziga xoslik; tashabbuskorlik; noaniqlikka toqat qilish; zakovatli bo'lish. Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: kasbiy faoliyatiga ijodiy yondoshish; yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish; ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish; hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish. Pedagog kreativ

faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy - irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi

Kreativ pedagogika

Pedagogda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijodkorlik bilan ijobiy hal qilishga bo'lgan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; tinglovchilarda nazariy materiallarini o'zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o'quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g'oyalarni ilgari surish qobiliyati ko'nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma - bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi fan.

“Kreativ pedagogika” fanning tarkibiy tuzilmasi:

kreativ ta'lim asoslari: maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, sub'ektlari, mazmuni, metodologiyasi, shakllari, metodlari, vositalari, metodikasi va texnologiyalari; malakali karlarni tayyorlash va ular tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kreativ shaxsni shakllantirish bosqichlari.

“Kreativ pedagogika” fanning maqsadi: shaxsni ijodiy, kreativ o'qitish, tarbiyalash va intellektual faoliyatini rivojlantirishdan iborat. **Kreativ pedagogikaning vazifalari:** ta'lim mazmuni, o'quv rejalari va dasturlarini saralash; o'quv moduli (fani)ni o'qitishning taktika va strategiyalarini belgilash; mos psixologik-pedagogik tashxis vositalarini tanlash; ta'lim oluvchilarning kreativ rivojlanishini bashoratlash; kreativ shaxsni shakllantirishning boshqaruv tizimini ishlab chiqish.

“Kreativ pedagogika”ni ob'ekti va predmeti:

Ob'ekti: Barcha yosh bosqichlari bo'yicha kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish jarayoni; **Predmeti:** Kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasi, ustuvor tamoyillari, yetakchi g'oyalari, muhim

yoʻnalishlari, asosiy bosqichlari va b. Kreativ pedagogikaning umumiy mohiyati uning konseptual asoslarini ifodalovchi asosiy tushunchalar:

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi;

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, oʻziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs

Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida obʻektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka oʻrgatish va oʻzini oʻzi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni

Ijod – ijtimoiy subʻektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi

Ijodkor shaxs – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy gʻoya, ularni amalga oshirish koʻnikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish hamda rivojlantirish.

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yoʻnaltirilgan masalalar tizimi

Kasbiy - ijodiy imkoniyat: kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini oʻzlashtirganlik;

ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; kasbiy - ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obʻektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat koʻrinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi taʼlimot.

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.

Kreativ qobiliyat – shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni taʼminlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati.

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini.

Oʻzini oʻzi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda oʻz imkoniyatlarini toʻlaqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi

Pedagoglarning kasbiy - ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarni ijobiy hal qilish va ularning yechimini tegishli darajada baholashda ko‘rinadi.

1.2. Pedagogning o‘quv mashg‘ulotiga kreativ yondashuvi va unga qo‘yilgan didaktik talablar.

Kreativ pedagogikada didaktik talablar:

O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish – pedagogning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi

Kreativ testlar – pedagogning ijodiy layoqatini o‘rganish v baholash metodikasining majmuasi.

Pedagoglarning kasbiy - ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarni ijobiy hal qilish va ularning yechimini tegishli darajada baholashda ko‘rinadi.

Tarbiyaviy faoliyati: Mehribon, muloqotga kirishuvchan, emotsional turg‘un, bag‘rikeng, adolatli, ma‘naviyatli, o‘z-o‘zini nazorat etaoladigan, iymon-e‘tiqodli, irodali

Pedagogik faoliyati: Yangiliklarni o‘rganishi va o‘rgatishi. Ta‘lim jarayonini kreativ yondoshuvda tashkil eta olish. Shug‘ullanuvchilar tanlagan sohalarini o‘rganishda yoshi, fiziologik imkoniyatiga mos ichki his – tuyg‘u, qiziqish ko‘nikmasini shakllantirish. Shug‘ullanuvchilarga do‘stona va samimiy munosabatda bo‘lishi.

Pedagogik mahorati: kasbiy ko‘nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; san‘at darajasidagi mahorat; pedagogik kompetentlik, mohirlik, bilimdonlik.

Texnologik mahorat: Shug‘ullanuvchilarni ishonchiga kirish, maqsadiga ishontira olish, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasini hosil qilish. Nutq mahorati. Qalbgga yo‘l topa olish. Muloqotga kirishuvchanlik .

Ta‘lim muassasalari, jumladan kasb – hunar kollejlari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining aksariyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda asosiy vazifalari ta‘lim-tarbiya jarayonini DTS talablari asosda tashkil etish va nazorat qilish, o‘quvchilarga o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo‘yicha zaruriy axborotlarni yetkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kreativ , kompetensiyaviy yondoshuvlarida quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- o‘quv dasturida o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta‘lim-tarbiyaviy jarayonining va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

- maqsadga muvofiq ko'zlangan natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l - yo'riqlarini va qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash;

- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan bashorat qilish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga ko'ra taqsimlashni rejalashtirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;

- ta'lim -tarbiya jarayonda o'quvchilarning sub'ektivligini ta'minlash va faolligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish jarayonlarini loyihalashtirish;

- dars jarayonda foydalaniladigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash;

- ta'lim – tarbiya jarayonlarning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni belgilash;

- ta'lim muassasalari, oila va mahallaning o'zaro aloqasini ta'minlash;

- pedagogik jarayonlarda ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilish;

- DTS va davlat talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish;

- o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish;

- o'quvchilar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash;

- o'quvchilarning mustaqil ta'lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- o'quvchilarning o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Malaka oshirish kurslarida jismoniy tarbiya o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarining komponentlaridan biri hisoblangan tarbiyaviy munosabatlarni jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "inson-inson" munosabatlari shaklida birinchi navbatda ta'lim muassasasi rahbarlarining o'qituvchilar bilan "rahbar - o'qituvchi", o'qituvchilarning o'z o'quvchilari bilan "o'qituvchi-o'quvchi", o'qituvchilarning o'z kasbdoshlari bilan "o'qituvchi-o'qituvchi" munosabatlarida o'zaro bevosita ta'sir mavjudligini o'rganadilar.

Malaka oshirish kursi davomida jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatlari, jismoniy tarbiya darslarida sog'lom

shaxsini shakllantirishdagi tarbiya turlari, shakllari, usullari va vositalari bo'yicha kasbiy kompetensiyasiga kreativ yondoshuvlarni takomillashtiradilar.

Zamonaviy talablar o'qituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanishi, o'zigga turli shart – sharoitlar yaratishi, innovatsion yondoshuvlarga oid ilmiy – metodik ishlanmalarni tegishli tarmoqlardan izlash, foydalanish o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko'maklashadi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan umumiy o'rta ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha pedagoglarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy - metodik asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagoglari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi. Keng qamrovli nazariy, metodik va amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik pedagoglar hamda talabalar kreativ yondoshuv sifatlarini takomillashtirish va shakllantirishni o'zlashtirish va pedagogik faoliyatlariga tatbiq eta olmayaptilar.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori sifat va samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham pedagoglarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv – biluv qobiliyatlarini ijodiy rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim tashkilotlari jumladan kasb – hunar kollejlarda yoshlarning jismoniy tarbiya va boshqa o'quv predmetlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligi ma'lum bo'lmoqda. Umumiy va o'rta maxsus professional ta'lim tashkilotini muvaffaqiyatli bitirgan yoshlar hayotida sport yo'nalishlaridan talab qilinadigan ishga yoki oliy o'quv yurtiga kirishda muammo va qiyinchiliklarga uchraydi; Sababi ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport sohasida olgan bilim va ko'nikma, malakalarni amaliyotda foydalanish imkoniyati kam bo'ladi.

Ko'plab yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ta'lim olishga nisbatan qiziqishi kamaygan. Buning natijasida pedagoglar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishlari susaygan. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish - istagi bo'lmagan yoshlar, bu kabi ta'lim oluvchilarni ta'limni istamayotgan pedagoglar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi yoshlar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, yoshlarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – **kreativlik** sanaladi [Patti].

Ilmiy - metodik tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q deb fikr bildirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. (Kim, 2005 y.).

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash yoshlardan o‘quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha tasniflash mumkin:

Kreativlik - (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, shaxs e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassisleri kabi pedagoglar ham o‘zlarida kreativlik bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalari darajasini aniqlovchi testdan o‘tadilar. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Pedagog tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar quyidagi to'rtta mezonni qanotlantirishi lozim.

E.P.Torrens - "kreativlik" mezonini quyidagicha ta'riflaydi:

muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. Pedagogning ijodkorligi - u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

"Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur: O'quv fanlarini sust o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish; Yoshlarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli yoshlar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi, sababi ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar yoshlarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Olimlar tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar yoshlarda kreativlikni rivojlantirishda pedagoglar uchun qo'l keladi hamda yoshlarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi. "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlarga aloqadorligi mustaqil o'quv fani sifatida shakllanishini ta'minlaydi. "Kreativ pedagogika" pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, aniq fanlarni ta'lim metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalarini tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart- sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to

umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Kasbiy kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Kasbiy - ijodiy faoliyat ko'nikmalarining takomillashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, intellektual tafakkurni rivojlantirish va ijodiy xarakterga ega shaxsiy sifatlarini hayoti davomida o'zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagog, trener kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.


Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi quyidagi shakllarda ifodalanadi: Me'yoriy hujjatlar (o'quv fanlari bo'yicha DTS, o'quv dasturi va rejalari)ni tayyorlash; O'quv manbalari (darslik, o'quv-metodik va metodik qo'llanma, tavsianoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish daftari va b.)ni yaratish; Ta'lim jarayoni va ma'naviy-ma'rifiy ishlar loyihalarini tayyorlash; O'quv axborotlari, nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish; Ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo'shqin tashkil etish; Ilmiy-tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish; Ilmiy va metodik anjumanlarda faol ishtirok etish, chiqishlar qilish; Ilmiy, ilmiy-metodik va metodik ishlarni chop ettirish; Davriy hisobotlarni topshirish, attestatsiyadan o'tish.

Pedagog tomonidan ushbu talablarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog'liq bo'ladi.

Kreativlik potensialiga ega pedagog quyidagi malakalarni namoyon eta oladi: bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish; masalaning qo'yilishini tahlil qila olish; masalani hal qilish rejasini tuzish; masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash; masalani hal qilish usullarini tanlay olish;

qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish; masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish; masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish va h.zo.


Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:



Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog: kreativ fikrlashga odatlanadi; ilmiy - tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini ijobiy o'zlashtiradi; mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi; pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Pedagogning kreativlik salohiyati mezonlari va darajalari:

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Pedagogning kreativlik salohiyati mezonlari:



Pedagogning kreativ salohiyati darajalari:

№	Darajalar	Daraja hycyciyatlari
1.	Yuqori	Tizimli ravishda innovatsion fikr va takliflar bilan kreativ faoliyatini ilmiy, izlanuvchan, novator pedagog sifatida namoyish etib boradi.
2.	O‘rta	Pedagog faol, izlanuvchan, ijodiy tashabbus bilan chiqishlarida kreativ salohiyati namoyon bo‘ladi.
3.	Past	Ilmiy, qonuniy asoslanmagan tashabbus ko‘rsatish kreativ faoliyat sifatida namoyon bo‘lmaydi.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarida “Kreativ pedagogika” modulini o‘rganish, o‘zlashtirish tinglovchilarda kreativ sifat va samaradorlik, ijodiy - pedagogik faoliyat malakalarini takomillashtiradi. Pedagoglarda kreativlik sifatлари, ijodiy - pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikalı tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan tamoyil, shakl, metodlardan foydalanish ijobiy, yakuniy natijalarga erishishni kafolatlaydi. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko‘rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora - tadbirlarini belgilash mumkin bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. “Kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. “Kreativ pedagogika”ning maqsadi nimadan iborat va u qanday vazifalarni hal qiladi?
3. “Kreativ pedagogika”ning ob’ekti va predmetini nima tashkil etadi?
4. “Kreativ pedagogika”ning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. “Kreativ pedagogika” qanay fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi?
6. Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llaniladi?



AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

2-MAVZU. INNOVASION - METODIK LOYIHALAR.

Reja:

2.1. Innovation - metodik loyiha tushunchasi.

2.2. Pedagogning kasbiy kreativligini oshirishda innovatsion - metodik loyihalarni o'rni va samaradorligi.

2.1. Innovation - metodik loyiha tushunchasi.

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning piravord natijalarini kafolatlagan holda o'quv - mashq mashg'ulotlari mazmunini uyg'unlashgan xolda ishlab chiqishga qaratilgan jarayon mahsuli. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga yega g'oya tashkil yetadi.

Loyihalash – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat. Loyihalash “g'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish” tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar: kompyuter, printer, nusxa ko'chirish apparati yordamida tayyorlanadi.

Loyihani yaratishda pedagog: loyihani yaratish, jarayonni bosqichma - bosqich yoritish, maqsadni aniq belgilash, maqsadga mos vazifalarni aniqlash, ta'lim materialini mazmunini shakllantirish, savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, jarayon yoki tadbirning ilmiy, metodik tuzilishini asoslash, sportchini nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini tashxislash va uning malaka, mahorat darajasini baholash.

Ta'lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi ishlab chiqiladi.

Ta'lim jarayonini loyihalash qoidalari:

Ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlari (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;

Ta'limning texnologik vositalari sportchi, shug'ullanuvchilarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;

Loyihalash strategiyalari trenerning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

Loyihalash sifati qaytar aloqa ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

Ta'lim jarayonida: loyiha – mazmun – faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi trenerlik, pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari:

Ta'lim jarayonni loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar: Pedagog tomonidan sportchining pedagogik, ilmiy, metodik, faoliyat mazmunini tahlil qilish; Piravord natijalarni oldindan bashorat qilish; Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish. Pedagogik faoliyatni loyihalash, odatda texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda sport va uzluksiz talim tizimida sport mashg'ulotlari va jismoniy tarbiya jarayonida innovatsion, interfaol, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarini sport ta'limi jarayonida ko'llashga bo'lgan e'tiborni ortib borishni sabablari ananaviy talimda shug'ullanuvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ular egallayotgan bilimlarini mustaqil o'rganib taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chikarishlariga o'rgatadi.

Innovatsiya (inglizcha Innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan intraktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Intraktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi xisoblanadi. Ya'ni pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orkali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni bir kator xususiyatlarga ega: o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish; o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlaydi; o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan xolda kuchaytirish; pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish;

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi innovatsion jarayonda shug'ullanuvchi shaxsini rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir kator boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Ta'lim jarayonida shug'ullanuvchi faol ishtirokchi sifatida shakllanadi. Sport va uzluksiz ta'limi tizimida ta'lim - tarbiya mazmunining sifat va samaradorligini ta'minlashda, uning komponentlari, vazifalari haqida so'z ketganda, dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan

haqiqatni mustaqil bilish metodlarini o'rganish va professional treninglarning ilg'or texnologiyalari, shuningdek murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarni tanlash va qo'llashda o'qituvchi – trenerlarning innovatsion yondoshuvlarida kreativ, kommunikativ faoliyatlarini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda.(imitatsiya – lotincha imitatio-taqlid, o'xshash. imitator – biror narsaga o'xshatma). Multimediya - o'zlashma qo'shma so'zlardan iborat bo'lib, (lotincha multum – o'zbek tilida ko'p, ancha ma'noni anglatadi), biror narsaning ko'pligini, ko'p qaytarilishini bildiradi hamda bir necha o'quv dasturlarni o'z ichiga olgan ta'limning shakl va vositasidir.

Innovatsiya - ingl. “innovationas” – yangidan kiritilgan tushunchalar, me'yorlar, tartib – qoidalar, metodlar, texnologiyalar. Ixtiro va kashfiyotlarni ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan holda mutaxassis mehnat faoliyati sohalarida yangiliklarni qo'llanishi.

Innovatsion ta'lim - ta'lim tizimida yangi g'oya, me'yor, yaratilgan qoidalarni o'qituvchi - trenerlarni ta'lim samaradorligini oshirishga oid sifatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadigan jarayon.

Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion faoliyati – zamonaviy innovatsion g'oya, me'yor, loyiha, metod va texnologiyalarni jadal o'zlashtirishi va amaliyotga tatbiq qilishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga karatilgan faoliyat.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion faoliyatini eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik – Jismoniy tarbiya o'qituvchisi- o'qituvchining sport ta'limi jarayonga ijodiy yondoshuvi va shug'ullanuvchida yangi tushuncha va ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislati;

Kreativlikni tavsifi: fikrining ravonligi; fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi; o'ziga xoslik (originallik); qiziquvchanlik; farazlar yaratish qobiliyati; fantaziyasi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kommunikativligi - sport ta'limi jarayonlariga innovatsion yondoshuvi; yuksak darajadagi muloqot ko'nikmalari. **Refleksiya** (lotincha Reflxio- ortga qaytish) sub'ektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni; Boshqalar sub'ekt faoliyatidagi shaxsiy xislatlari,

his qilish tuyg‘usi va bilish (kognitiv) tasavvurlari hamda tushunishi, aniqlab olishidir. Refleksiya - Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kreativ va kompetentlik faoliyatidagi muhim komponentlaridan, tafakkuri va faoliyatini belgilash va tahlil qila olishi (o‘zining nazariy va amaliy harakatlariga tashqaridan nazar solish); **Reflektiv jarayonlar** - Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va shug‘ullanuvchilar faoliyati mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan tahlil; Shaxslararo muloqot ma’nosini tushunish; O‘z-o‘zini va boshqalarni tushunish; O‘z-o‘ziga va boshqalarga baho berish; O‘z-o‘zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

2.2. Pedagogning kasbiy kreativligini oshirishda innovatsion - metodik loyihalarni o‘rni va samaradorligi.

Kreativ pedagogikaning didaktik mohiyati:

O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish – pedagogning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi

Kreativ testlar – pedagogning ijodiy layoqatini o‘rganish v baholash metodikasining majmuasi.

Pedagoglarning kasbiy - ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarni ijobiy hal qilish va ularning yechimini tegishli darajada baholashda ko‘rinadi.

“ASSESSMENT” TEXNOLOGIYASI

ASSESSMENT – (inglizcha – assesment – baho) o‘z- o‘zini taqdimot qilish, ma’lum bir sinovdan o‘tish deb belgilangan.

TEXNOLOGIYANING MOHIYATI

Kurs tinglovchisi mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq, vazifalarga mustaqil ravishda o‘z munosabatlarini bildirish, shu orqali egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘zlari tekshirib, baholashga imkoniyat yaratish.

TEXNOLOGIYANING MAQSADI

Tinglovchilarni mashg‘ulotda o‘zlarning kasbiy sohalari bo‘yicha faoliyatlarida o‘zlashtirgan malaka va mahoratlari darajalarini aniqlash, mustaqil ravishda o‘z faoliyatlarini baholay olish, shuningdek, o‘z bilim, malaka va mahoratlarini takomillashtirishdir.

PEDAGOGLIK LAYOQAT BO'YICHA TEST

1.Sizga odamlar bilan muloqot qilish yoqadimi?

A) Ha;

B) Yo'q.

2. Hamkasblar bilan u yoki bu masalani muhokama qilayotganda, ularni o'z nuqtai nazarinigiz to'g'riligiga ishontira olasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

3.Harakatlaringizda izchillikka rioya qilasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

4.Sizningcha, taqvim, oylik reja tuzib va u bo'yicha ish yuritasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

5.Siz uchun turli hil hissiyotlarni nazorat qilish qiyinmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

6.Jiddiy masalalarda qat'iy va talabchan bo'laolasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

7.Jamodagilarning doimiy qo'llab - quvvatlashisiz ishlay olasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

8.O'zingizga tegishli bo'lmagan g'oyalarni yoqtirmay qabul qilasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

9.Qaror qabul qilishda qiynalsangiz, ammo vaqt cheklangan bo'lsa, o'zingizni yo'qotib qo'yasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

10. Yangi bilimlar olishga shaymisiz? Muntazam o'rganishga va izlanishga intilasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

9.Qaror qabul qilishda qiynalsangiz, ammo vaqt cheklangan bo'lsa, o'zingizni yo'qotib qo'yasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

10. Yangi bilimlar olishga shaymisiz? Muntazam o'rganishga va izlanishga intilasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

13.G'oyalarga boymisiz?

A) Ha;

B) Yo'q.

14. Muvaffaqiyatli bajargan ishingizdan qoniqsangiz,rahbardan rag'bat kutasizmi?

A) Ha;

B) Yo'q.

15.Rejalashtirilgan vazifa, majburiyatlarni ijrosi siz uchun qiyinchilik tug'dirmaydimi?

A) Ha;

B) Yo'q.

16.Va'dangizni doim bajara olasizmi?

A) Ha;

B) Yo‘q.

17.O‘quvchilar sizning topshiriqlaringizni bajarishlariga ishonch uyg‘ota olasizmi?

A) Ha; B) Yo‘q.

18. Biror qiyin ishni bajarishda, bahona izlamaysizmi?

A) Ha;

B) Yo‘q.

19.Boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik holati kam bo‘ladimi?

A) Ha;

B) Yo‘q.

20.Masalani oqilona yechimida tavakkal qila olasizmi?

A) Ha;

B) Yo‘q.

TESTLAR JAVOBINING KALITI

“A” javoblarga ball hisoblamang,

“B” javoblarga 2 bal qo‘yib yig‘indisini hisoblang.

0-10 ball: Siz g‘ayrat va chinakam hohish uyg‘unlashganda, albatta natija bo‘lishiga ishonadigan faol pedagogsiz. Bundan tashqari, kirishimli, ma’suliyatlisiz. Turli tashqi ta’sirlarga u qadar berilmaysiz.Sizda pedagoglik sifatleri yetarli.

12 – 24 ball: Pedagog sifatida muvaffaqiyatga erishishda, muhim qarorlarni tez qabul qilishda, dushman orttirishdan cho‘chimasdan o‘z fikringizni himoyalash, hamkasb va o‘quvchilar uchun javobgar bo‘lish oson emasligiga tayyormisiz? Agar ikkilanmasdan “Ha” deb o‘ylasangiz, o‘rta toifali mutaxassissiz.

26 – 40 ball: Pedagoglika xos talab va xususiyatlar , hamkasblaringizni ilg‘or tajribalarni ko‘proq o‘rganing. Shunda rejalariningizni hamkorlik asosida amalga oshirishda qiyinchiliklar kamroq bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy, metodik, kreativ faoliyati va uni takomillashtirish yo‘llari:

Intensiv yo‘l – Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik, metodik mahoratlari va texnikasini hamda kasbiy faoliyatni rivojlanishining motivatsiyalar hisobiga jadal suratlarda amalga oshirishi.

Motiv - Insonni o‘qishga yoki muayyan harakatlarini bajarishga undovchi ijobiy sabablar yig‘indisi. Sportda shug‘llanuvchining ma’lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatga moyilligini rivojlantirish;

Motivatsion ko‘nikma - shaxs motivlarining yig‘indisi va shaxsning ijodiy, ilmiy, jismoniy mehnatga layoqatligining eng muhim belgisi.

Ekstensiv yo‘l - Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik va metodik faoliyatini takomillashtirishda yangi modernizatsiya qilingan vositalar, jihozlar, texnologiyalardan mashqlar o‘rgatish jarayonida maqsadli foydalanishi;

Pedagogik innovatsiya yo‘nalishlari – innovatsion texnologiyalar, pedagogik yangiliklarni pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirish va baholash, amaliyotda qo‘llash to‘g‘risidagi ta’limot bo‘lib to‘rtta:

Pedagogik - neologiya, aksiologiya, praksologiya, akmeologiya yo‘nalishlariga ega.

Pedagogik neologiya (yunoncha “neo”- yangi va “logos”- ta’lim bo‘lib, yangilik haqidagi ta’limot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o‘rganiladi, umumlashtiriladi.

Pedagogik aksiologiyada (yunoncha “aksioma”- “isbotlanmaydigan ta’limot” ma’nosini anglatadi) pedagogik yangiliklar ichidan eng ishonchlisi va samaralisi tanlab olinadi.

Pedagogik praksologiya (yunoncha “praks” – “harakat va “logos” – ta’lim, ya’ni “amaliyotda qo‘llash haqidagi ta’limot” ma’nosini anglatib, bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo‘llash, muayyan samaraga erishish masalalari tushuniladi.

Akmeologiya - Yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma’nolarni bildiradi. Sportchi faoliyatidagi eng yuqori natijalar:

Respublika, Osiyo, Yevropa, Xalqaro, Jahon chempionatlaridagi muvaffaqiyatlarga erishgan davri.

Akmeologiyaning sub’ektiv va ob’ektiv omillari: iste’dod nishonalari; uquvlilik; qobiliyat; iste’dod; oila tarbiyasi sharoiti; sport ta’limi muassasasi; o‘z xatti-harakati. **Akmeologiya kategoriyalari:** intellektual - ijodiy tashabbus;

bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;


ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;

axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayriodatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishidagi asosiy yo'nalishlari :

Pedagogik innovatsiyalar haqida aniq ma'lumotlar jamg'armasini yaratish, to'plash; to'plangan innovatsion ma'lumotlarni Jismoniy tarbiya o'qituvchisi - o'qituvchilar, ustozlar tomonidan o'rganilib xorijiy davlatlardagi ta'lim sohasidagi tajribalar bilan taqqoslanadi, amaliyotga joriy qilish va qo'llash , malakasini oshiradi, metodik qo'llanma, metodik tavsiyalar o'rganish; sport ta'limi sohasidagi olimlar, ilmiy izlanuvchilar bilan hamkorlik ishlarini olib boriladi, ilmiy – amaliy kengashlar, konferensiyalarda qatnashib , innovatsiyalarning qo'llanilishini dinamik ravishda rivojlanishini o'zlashtirib boriladi.

Pedagogik innovatsiyaning modeli shartli ravishda **“To'pla”**, **“Tanla”**, **“Qo'lla”** dan iborat.



Innovatsion pedagogik texnologiyaning monitoringi

1- bosqich o'rganish esda saqlash

2- bosqich tushunib yetish o'zlashtirganini isbotlash

3- bosqich tatbiq eta olish qonun – qoidani tanlash,

qo'llash

4- bosqich tahlil eta bilish qiyoslash, xulosalash, o'zaro

bog'lash

5- bosqich sintez axborotni ijodiy qayta

ishlay olish

6- bosqich baho olish yangi bilimga o'tish.

Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining tasnifi. Innovatsion metodologik faoliyati:

Kreativ fikrlovchi, innovatsion, interfaol, loyihali ta'limni biladi. Sport ta'limining nazariy va amaliy Jismoniy tarbiya o'qituvchisi darslarda innovatsion texnologiyalarni o'rganuvchi, jarayoniga qo'llovchi, tadqiqotchi, novator.

An'anaviy mashg'ulotlarda Jismoniy tarbiya o'qituvchisi - asosiy siymo. U axborot berish, nazariy matnlarni bayon qilish, tezroq o'quv – mashq mashg'ulotlarini o'tkazadi. Lekin shug'ullanuvchilarning yangiliklarni qabul qilish darajalari har – xil, xohish istaklari turlicha, ular passiv eshituvchi, bu ularni sport ta'limi jarayonida mas'uliyatni, javobgarlik hissini susaytiradi. Natijada ular mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish, amaliy xulosa chiqarishdan yiroqda bo'ladi. Sport mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning: tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni, tafakkur bog'lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni rivojlantirishga imkon beruvchi didaktik prinsip - bu ta'limdagi faollikdir. Faollik mezonlari onglilik prinsipi bilan bevosita aloqador bo'lib – onglilik bor joyda faollik bo'ladi.

Pedagogik texnologiya masalalari muammolarni o'rganayotgan o'quvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha pedagogik texnologiya – bu fakat axborot texnologiyasi bilan kompyuter masofali o'qitish yoki texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'lik.

“KEYS – STADI ” TEXNOLOGIYASI

“Keys – stadi” - inglizcha “case” va “stadi” co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, (*“case” – o'zbek tilida aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o'rganmoq, tahlil qilmoq*) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan metodidir. “Keys – stadi” boshqa ta'lim metodlaridan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea - hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalaniladi. Agar sport o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi. Sportda

aniq jarayonni tadqiq etishda bosqichma - bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“KEYS METODI” NI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI



Keys-stadi (Keys study) metodi quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

Analitik: dalillarni axborotlardan farqlash ko'nikmasini; axborotlarni tasniflash, muhim va muhim bo'lmaganlarini ajrata olish, tahlil qilish, tasavvur qilish va ularni izlab topish. Tiniq va mantiqiy fikrlash.

Amaliy. Muammoning murakkablik, qiyinlik darajasi aniq hayotiy vaziyatga nisbatan keysda pasaytirilgan hollarda amalda iqtisodiyot nazariyasi, prinsiplari va metodlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga undaydi.

Ijodiylik. Bitta mantiq bilan keysdagi vaziyatni yechib bo'lmaydi. Mantiqiy fikrlash bilan maqbul yechimni topish qiyin bo'lgan hollarda muqobil (alternativ) qarorlarni generatsiya qilishda ijodiy ko'nikma juda muhim hisoblanadi.

Kommunikativlik. Bahs-munozara olib borish, atrofdagilarni ishontira olish;

Ko'rgazmali materiallardan va boshqa media-vositalardan foydalanish, o'z fikr-mulohazasini himoya qila olish, opponentlarni ishontirish, qisqa ishonarli hisobot tuza olish.

Ijtimoiy. Keysni muhokama qilishda ma'lum bir ijtimoiy ko'nikmalar hosil bo'ladi: insonlar xulq-atvorini baholash, eshita olish, bahs-munozarada qo'llab-quvvatlash yoki qarama-qarshi fikrni asoslay olish, o'zini nazorat qilish va shu kabilar.

O'z-o'zini tahlil qilish. Bahs-munozarada fikrlarga qo'shilmaslik, boshqalar va o'z fikrini anglab yetish va tahlil qilish.

FUTBOL O'YINI JARAYONIDA KEYS)

O'yin jarayonida raqib jarima maydonida qo'pol ravishda o'yin qoidasi buzildi. O'yinni boshqarib borayotgan hakam, o'yinni to'xtatdi va 11 – metrlik jarima belgiladi. Bu futbol o'yini jarayonida sodir bo'lgan aniq vaziyat **“Keys”** .

Futbol o'yinida “Sase” ni “stadi” bosqichlarini tahlili:

1.O'yinni Kim to'xtatdi – Hakam.; 2. Qachon - o'yin qoidasi buzilganda; 3. Qaerda - jarima maydonida; 4. Nima uchun - raqibga nisbatan o'yin qoidasini himoyachi qo'pol ravishda buzdi; 5. Qanday yechim taklif etiladi? 6. Nima – natija kutiladi?

“Keys” ni amalga oshirish bosqichlari

Keysni amalga oshirish algoritmi	Faoliyat shakli va mazmuning texnologik jihatlari
1-bosqich: Keys - hakam, o'yinni to'xtatdi	Muammoli vaziyatni aniqladi,
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish: raqibga nisbatan o'yin qoidasini himoyachi qo'pol ravishda buzdi;	Asosiy muammoli vaziyatni belgilash: o'yin qoidasi qo'pol ravishda buzildi
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish :jarima maydonida qoida buzildi;	Aniq vaziyat yechimining imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish: O'yinchilarni jarima maydonchasidan tashqariga belgilangan masofaga chiqarish;
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish Jarima to'pini qaysi o'yinchi tepadi	Maydonchada darvozabon va jarima to'pini tepadigan o'yinchi to'pni belgilangan nuqtaga qo'ydi
5.Bosqich: Hakam jarima to'pini tepishga ruhsat berdi	Jarima to'pini o'yinchi tepdi. Natija: to'p tepildi, gol bo'ladimi yoki yo'qmi keys yechimi hal bo'ldi

TRENER VA SPORTCHININ REFLEKTIV FAOLIYATI

Refleksiya - faqat sub'ektning o'z ruhiy holatini o'ylashi, bilishi va tushunishi, fikr yuritishi va uni tahlil qilishga moyilligi bilan bir qatorda, boshqalar uning

Pedagogiy xislatlari, his qilish tuygʻusi va bilish (kognitiv) tasavvurlari hamda tahlillarini tushunishini aniqlab olishidir.

Trener, jismoniy tarbiya oʻqituvchisi, sportchini oʻz xatti - harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, xato, kamchiliklariga tashqaridan nazar solib anglab yetishi va tahlil qila olishi, mustaqil oʻrganib, faoliyatiga korreksiyalar kiritishga qaratilgan nazariy faoliyati - **refleksiyadir**. (*Refleksiya lotinchadan "reflexio" – ortga qaytish, aks etish*).

Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi va sportchining reflektiv faoliyati - tafakkuri mohiyati va vazifalari, qadriyatlarini, qiziqishlari, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy taʼsirlanish, xatti-harakatlari hamda ragʻbatlantiruvchi omillarga tashqaridan nazar solib anglab yetishi va tahlil qila olishi.

Reflektiv jarayonlar: Obʼektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili; Pedagoglararo muloqot maʼnosini tushunish refleksiyasi; oʻzini va boshqalarni tushunish; oʻziga va boshqalarga baho berish; oʻzini va boshqalarni faoliyatini izohli tahlil qilishi

FUTBOL OʻYINIDA BOSH HAKAMNING REFLEKTIV FAOLIYATI

Futbol oʻyinida turli qiziqarli vaziyatlardan lavhalar: gol, penalti, qizil kartochkalar va futbolchi xatosini aniqlash borasidagi vaziyatlardan monitorda lavhalarni takroriy koʻrish, hakam oʻyinni toʻxtatib, qaror qabul qilishiga yondoshuvi. VAR – (video assisent referi), (*VAR - video assisent referi*), bosh hakam oʻzining oʻtgan faoliyatiga turli burchaklardan video kameralardagi vaziyatlarni monitorlarda oʻrganib tegishli qaror qabul qilishi yoki oʻz qarorini toʻgʻriligiga ishonch hosil qilishidir. Futbolchilarni musobaqalarga tayyorlash va oʻquv –mashq mashgʻulotlarini video kameralarda tasvirga olish va takroriy aks etishida Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi, har bir oʻyinchi fikri, harakatlari va holatlarini tahlil qilishda tashqaridan nazar solish, nazariy va amaliy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni belgilash va tahlil qilib kelgusi mashgʻulotlariga tegishli korreksiyalar kiritishi Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi faoliyatining shaffofligini taʼminlaydi.

Sportchilarini musobaqalarga tayyorlashda Jismoniy tarbiya oʻqituvchisining reflektiv yondoshuvi oʻquv – mashq mashgʻulotlarini video kameralarda tasvirga olishi va takroriy aks etishida oʻz fikri, harakatlari va holatlarini tahlil qilishda tashqaridan nazar solishi, oʻzining nazariy va amaliy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni belgilash va tahlil qilib kelgusi mashgʻulotlarida toʻgʻrilashi hisoblanadi.

Ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ham ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida mustaqil fikrlay olsa, ijod kilsa, izlansa, tahlil kilsa, xulosa chikarsa, o'zlariga guruxga, gurux esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratsa, shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Dars ijodiy jarayon bo'lgani uchun mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos metodikasi va texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi.. Ya'ni o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedtexnologiya, bu o'ziga xos tartibdagi motiv bo'lib, u o'quvchi extiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga karatilgan pedagogik faoliyatdir.

Nazorat savollari:

- 1.Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining tasnifida:
- 2.«Pedagogik texnologiya» iborasining ta'rifini tushuntirib bering.
- 3.«Pedagogik texnologiya»ning maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
- 4.O'quv materialni to'la o'zlashtirish tamoyili nima?
- 5.Pedagogik texnologiyaning tamoyillari nechta?
- 6.Ilmiylik tamoyilini izohlang.
- 7.Loyihalanish tamoyili tushuntiring.
- 8.Tizimlilik tamoyili nima?

3-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA ONLINE PLATFORMALAR.

Reja:

3.1. Pedagogik faoliyatda online platforma tushunchasi.

3.2. Pedagogning kasbiy kreativligini rivojlanishida online platformalarni o'rnini va samaradorligini.

3.1. Pedagogik faoliyatda online platforma tushunchasi.

Hozirda ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda juda ko'p yangiliklar mavjud. Ular noan'anaviy dars o'tish usullari, interfaol usullar, turli texnika vositalaridir. Mana shu usullar asosida darsni qiziqarli va mazmunli tashkil qilish bilan birga o'quvchilarning saviyasini oshirish, dunyo qarashini kengaytirish va albatta, notiqlik mahoratini shakllantirish mumkin. Har bir o'qituvchi mazmuni o'quvchi ongida uzoq vaqt saqlab qolish uchun turli ko'rgazmalardan, slayd va multimedialardan foydalanishi lozim. Bu narsalar o'quvchida darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ma'lumki, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo'ljallab olish kerak. Bunda o'qituvchi fanning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim bo'ladi.

Insoniyat faoliyati XXI asrda raqamli dunyo bilan uzviy bog'landi. Raqamli qurilmalar, sun'iy intellekt qamrovi tobora ortib bormoqda. Endilikda raqamli savodxonlik o'qish va yozish qobiliyati kabi muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. U jamiyatning har bir a'zosi faoliyatida turli raqamli qurilmalardan, manbalardan foydalanish, qo'llash, ishonarli yoki ishonarsiz ma'lumotlarni saralash, ajratish qobiliyati sifatida namoyon bo'lsa, o'qituvchi faoliyatida veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, videolar va elektron kitoblardan zarur manbani topish, ularni ta'lim kontentini yaratish uchun qo'llash, onlayn resurslarni yaratish, ularni saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta'lim platformalari orqali almashish qobiliyatidir. Mutaxassislarining tadqiqotlarida ta'lim resurslari moslashuvchan bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi.

Buni ta'lim platformalari misolida yaqqol ko'rish mumkin. Platformalar o'quv maqsadlariga ko'ra tanlanadi. Ularning ba'zilari yangi mavzuni bayon qilishda, ya'ni kontentni uzatishda, ba'zilari o'quvchi bilimni formativ baholashda, ba'zilari darsni mustahkamlashda va h.k. maqsadlarda foydalaniladi.

Platformalarda ishlash qulayligi va samaradorligini undan foydalanib ko'rilganda baholash mumkin. Kutilayotgan natijaga erishilishi, albatta, darsda sinab ko'rilganda ma'lum bo'ladi. Ayrim platformalar muayyan muddatlardan so'ng pullik xizmatlarini taklif qila boshlaydi. Bu esa endigina platformaga

moslashgan, unda ishlash malakasini egallayotgan o'qituvchi oldida to'siq paydo qiladi. O'qituvchiga muayyan bir platformani tavsiya qilishda shu kabi holatlarni hisobga olish zarur. Shuni alohida aytish lozimki, ochiq ta'lim platformalarida yaratilgan masofaviy ta'lim kurslarini ishlab chiqilishidan tortib, uni o'quv mashg'ulotda joriy etilguniga qadar bo'lgan davr mobaynida onlayn kurslarni yaratuvchi shaxs o'quv kurs yaratilishining metodologiyasi va o'qitish metodikasi asosida ochiq onlayn kurs ishlab chiqishi muhim masala hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta'lim tizimida fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga e'tibor qaratish, ta'lim jarayoniga elektron ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, masofaviy ta'limni qo'llabquvvatlash zarur. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini masofaviy ta'lim jarayonida qo'llashning ikkita zaruriy sharti mavjud:

texnik jihozlar bilan taminlanganlik;

maxsus dasturiy ta'minotlarning mavjudligi.

So'ngi yillarda rivojlangan mamlakatlarda internet orqali ta'lim olish jadal rivojlanmoqda va u "Elektron ta'lim" (e-Learning) atamasi bilan kirib keldi. Elektron ta'limni tashkil etish uchun ko'plab tizimlar mavjud. Bularga misol qilib Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools), Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar – LMS (Learning Management Systems), Ichki kontentning boshqaruv tizimlari – CMS (Content Management Systems)ni keltirish mumkin. LMS – bilim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun mo'ljallangan tizimlar hisoblanadi. Ular orqali ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchi o'rtasida muloqot rejimi o'rnatiladi hamda o'quv materiallari majmuasi, videodarslar, ma'ruza materiallari, taqdimotlar, elektron kitob va qo'llanmalar uzatiladi va qabul qilinadi.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuasidir.

Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Video va audio konferensiyalar – bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallaridan foydalangan holda ikkita uzoqlashgan

auditoriyalarni bir-biri bilan bog‘lab ta‘lim olish yo‘li. Video va audio konferensiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqori tezlikka ega bo‘lgan aloqa kanali va o‘qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo‘ladi.

Elektron pochta orqali ta‘lim – bu internetning elektron pochta xizmatlaridan foydalanib, ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi o‘rtasida xatlar orqali muloqot o‘rnatib ta‘lim olish yo‘li. Elektron pochta yordamida har xil test, vazifa, savol-javob xabarlarini, shuningdek, o‘quv adabiyotlari va o‘quv qo‘llanmalar fayllarini (matn, grafika, multimedia, dasturlar va boshqa ko‘rinishida) jo‘natish va qabul qilish orqali ma‘lumot almashish mumkin.

Simulyator, elektron darsliklar va o‘quv dasturlar – bu, asosan, nazariy va amaliy bilimlarni qamrab olgan o‘quv manbalari hisoblanib, kompyuter dasturlari orqali o‘quvchilarga onlayn va offlayn holatida foydalanish uchun ishlab chiqiladi. Simulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta‘lim sohasida juda keng qo‘llanyapti.

Internet masofaviy ta‘lim portallari – bu Internet tarmog‘idagi ko‘plab saytlarda joylashgan katta hajmdagi ma‘lumotlardan foydalanish va yangi bilimlar olish yo‘li. Ushbu saytlarning asosiy vazifasi – ta‘lim jarayonini tashkil qilish, ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi o‘rtasida elektron onlayn muloqotni o‘rnatish, o‘qituvchilarga o‘quv materiallarni joylashtirish va o‘quvchilarga shu ma‘lumotlar bilan ishlashga hamda boshqa masofaviy ta‘lim servislardan foydalanishga imkoniyat yaratishdan iborat.

Masofadan o‘qitish uslubiy materiallari quyidagilardir:

darslik;

audio va video darsliklar;

onlayn darslar (Internet sahifa);

elektron kutubxonalar;

testlar;

multimedia vositalari;

elektron darsliklar.

Masofaviy ta‘lim, uzluksiz ta‘lim tizimi shakllaridan biri hisoblanib, insonning bilim olish va axborotlardan foydalanish huquqini amalga oshirishga yo‘naltirilgan. Masofali ta‘lim olishni istagan inson uchun kasbiy faoliyati bilan bir qatorda asosiy yoki qo‘shimcha ta‘lim olish imkonini beradi.

Masofadan o‘qitishning afzalligi shundaki, unda ta‘lim oluvchi o‘ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko‘pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o‘zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar.

Masofadan o'qitishning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishga qarab aniqlanadi. O'quvchi berilgan dasturni qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Dasturni o'zlashtirmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi. Masofadan o'qitishda, odatda, ishlayotganlar, onalar, o'qiyotganlar biror mutaxassislikni egallash yoki malakasini oshirish maqsadida o'qiydi. Bu uslub nogironlar uchun juda qulaydir.

Masofadan ta'lim oluvchilar auditoriyasini quyidagi ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

ikkinchi mutaxassislik, qayta tayyorlov, malaka oshirish yoki qo'shimcha ma'lumot olishni xohlovchilar;

mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari;

an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlari cheklangani sababli ma'lumot ololmagan yoshlar (Covid – 2019 pandemiyasi sababli, respublikamiz bo'ylab e'lon qilingan karantin cheklavlari davrida televideniye orqali tashkil qilingan onlayn dars jarayonlari);

o'z ma'lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish istagida bo'lgan firma va korxonalar xodimlari;

ikkinchi parallel ma'lumot olishni xohlagan tinglovchilar;

markazdan uzoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi;

erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar;

jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar;

harbiy xizmatda bo'lgan shaxslar va boshqalar.

Onlayn usulda ta'lim olishning afzalliklari va cheklovlari

Onlayn usulda ta'lim olishning afzalliklari	Onlayn usulda ta'lim olishning cheklovlari
➤ asosiy faoliyatdan ajralmagan holda ta'lim olish;	➤ ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida yuzma-yuz muloqotning kamligi;
➤ ta'lim oluvchi bo'sh vaqtida uy sharoitida yoki ish joyida ta'lim olishi mumkin;	➤ ta'lim oluvchidan resurs materiallari bilan mustaqil ravishda ishlashda qunt va izchillikni talab etadi;
➤ har bir ta'lim oluvchiga individual yondashuv;	➤ ta'lim oluvchi kompyuter texnikasiga ega bo'lishi shart;
➤ resurs materiallar: audio, video materiallardan foydalanib mustaqil shug'ullanish imkoniyati;	➤ ta'lim oluvchida internet tarmog'iga ulanish imkoniyatiga ega bo'lishini talab etadi;
➤ ta'lim oluvchi duch kelgan qiyinchiliklar bo'yicha maslahatchilardan telefon orqali, xat orqali yoki elektron pochta orqali maslahatlar olish;	➤ tarmoq orqali ta'lim berish muhiti mukammal ishlab chiqilgan tuzilishga ega bo'lishi va ta'lim oluvchilarga tezkor muloqot qilish imkoniyatini ta'minlashi lozim;
➤ trening-seminarlar, konferensiyalar, audio, video konferensiyalar tashkil etish va boshqalar.	➤ ta'lim oluvchi yozma muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari sifatida onlayn ta'lim olish, masofadan turib malaka oshirish, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ta'lim platformalari kurslarida o'qish kabilarni aytish mumkin. Ushbu usullarda ta'lim olish an'anaviy usulda ta'lim olishdan arzon va qulayligi bilan ajralib turadi. Bunda katta yoshli ta'lim oluvchi ish faoliyatidan ajralmagan holda malakasini oshirishi, qo'shimcha kurslarda qatnashishishi, qayta tayyorlov kurslarida o'qishi mumkin. Ta'limning bu turi masofa, mintaqa, o'quvchilar yosh chegarasi, ijtimoiy mavqeyini tanlamaydi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar, olis hududlarda va nochor oilalarda yashovchi shaxslar ham ta'lim olish imkoniga ega bo'lishadi. Ta'lim

oluvchi o'qish muddatini o'zi belgilaydi, lekin platformada topshiriqlar uchun belgilangan muddatlarga amal qiladi. Onlayn ta'lim olishning eng yaxshi tomoni ta'lim oluvchi qandaydir sabab bilan darsda ishtirok eta olmasa yoki yaxshi tushunmasa, mavzuga oid video, taqdimot ko'rinishidagi ma'lumotni qayta-qayta ko'rib, o'rganib chiqishi mumkin.

3.2. Pedagogning kasbiy kreativligini rivojlanishida online platformalarni o'rni va samaradorligi.

Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "tsreate"-yaratish, "tsreative"yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun.

Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi. Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi. Shaxsning ijodiy fikrlashi va kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi shart-sharoitlar mavjud, ijodiy qobiliyatlar va ijodiy motivatsiyaning mavjudligi. Kreativlik muayyan bosqichlarda tez suratlarda rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida ko'zga tashlanmasada, biroq bu holat kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Jamiyatimizning barcha qatlamlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasida savodxonlikni uzluksiz ravishda oshirib borishimizda, axborot texnologiyalari sohasida inson kapitalini rivojlantirish kadrlarni tayyorlash va ular

malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, avvalo ilg'or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur egallash orqali amalga oshiriladi. Buning uchun avvalo, pedagoglarning kasbiy kreativligini rivojlanish online platformalar bilan ishlash mahoratini shakllantirish lozim. Bugungi kunda pedagoglarni mahoratlarini oshirishda masofaviy ta'lim-ta'limda telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari axborotlarni tasvirlash va uzatishning yangi shakllari muhim o'rin tutadi. Ana shunday o'qitish shakllaridan biri "Masofaviy o'qitish" deb nomlangan internet tarmog'idagi ta'lim bo'lmoqda.

"Masofaviy o'qitish - davlatda va xorijda aholining keng qatlamiga masofada turib o'quvchi va o'qituvchini o'quv axborotlar bilan almashinish vosita (kompyuter aloqa, sun'iy yo'ldoshli televidenie va sh.k.)larga asoslangan maxsus axborot-ta'lim muhiti yordamida ta'lim xizmatlar majmuasini taqdim qilishdan iborat". Masofaviy o'qitishning xususiyatlariga: birinchidan, tinglovchini pedagogdan o'zoqdaligi; ikkinchidan, mustaqil o'qish; uchinchidan, axborot vositalari va ashyolarini o'quv jarayoniga faol birlashishidir. Masalan, Tandem tizimi Yevropa tillaridan birini o'rganishga hamroh topish imkoniyatini beradi va o'qish mobaynida aniq bir muloqot qilish jarayonini tashkil etish uslubi'etini taklif etgan holda vositachi xizmatini o'taydi. Masofaviy o'qitishda psixologik, pedagogik texnologiyalar qanday ahamiyatga ega bo'lishi mumkin? Virtual fazoda ular shuningdek, o'qitish jarayonini faollashtiruvchi, lekin yangi darajadagi, ya'ni ular virtual muhitning talablariga javob berishlari va axborot texnologiyalari bilan birgalashishlari kerak bo'lgan vazifasini bajarishi mumkin. Oxirgi ta'kid, shundan iboratki, anchadan buyon o'quv jarayoniga kiritilgan yangi texnologiyalar davlatlarning mutaxassislari o'rtasida keskin shov-shuvga sabab bo'lishi mumkin. Ular uchun zamonaviy texnik va axborot vositalari o'quvchilarga qanday ta'sir etayotganligi muhim hisoblanadi.

Fransuz mutaxassislarning fikricha, **pedagogning kasbiy kreativligini rivojlanishida online platformalarni yaratish orqali erishish mumkinligi keltirilgan. online platformalarni yaratishda pedagog** eng yangi texnologiyalarni ta'limga qo'llash orqali ularda o'qitishning motivatsiyasini kuchaytiradi; axborot manбайдan iborat, mustaqil ta'limni rag'batlantiradi, mustaqil va yo'naltirilgan ko'nikmalarini shakllantiradi; ta'limning axborotlilikini, jadalligini, natijaviyligini ko'taradi. Shu bilan bir qatorda, ko'pgina mutaxassislarning zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini ideallashtirishdan o'zoqdalar va hatto, ularni foydalanishni gumonlashtiradilar. Masalan, yapon pedagogi S.Sudzuki, bir tomondan, EHM pedagoglarning tafakkurini rivojlantiradi, boshqa tomondan, bilimlarni mustahkamlashni ta'minlaydi deb hisoblaydi. Fransuz pedagogi L.Legran, o'quvchilarning kompyuterda ishlashdagi motivatsiyasi hodisasini

o'rganib, bunda paydo bo'ladigan o'yin o'quv bo'ladimi yoki yo'qligini tahlil qilishni taklif etadi. Umuman, xorijiy mutaxassislar o'qitishni sifatli bo'lishida pedagoglarni yangi texnologiyalar sohasida hamkorligini nazarda tutadigan zamonaviy o'qitish vositalarining tahliliga majmuaviy yondashuv zarurligi bo'yicha bir xil fikrdalar. Ushbu muammolarning hammasi masofaviy ta'limni tahlil etishda dolzarb hisoblanadi. Chunki, u to'laligicha axborot texnologiyalarini qo'llash bilan bog'langan soha sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ma'rifat o'qitishning asosiy tamoyillaridan biri uning barchaga barobarligi aniq shartlarda xohish bildirgan ixtiyoriy kishi "virtual o'quvchi" bo'lishi mumkinligidir. Lekin, bu yerda yana bir, kirish mumkinligi qanday qilib yuqori sifat bilan optimal birlashtirish kerak?, degan muammo paydo bo'ladi. O'qitishning an'anaviy shakli bilan taqqoslashda sifatni takomillashtirish uchun masofaviy o'qitish dasturi quyidagi tamoyillarni tarkibiga olishi kerak: "sifat-barchaga barobarlik" tizimining balansi mablag' ta'lim fazosini yaratish (axborot ashyolari va o'quv materiallari)ga ketadigan samarali moliyalashtirishni o'qitish jarayonini muqobil tashkil etish bilan birgalikda qaralgandagina erishish mumkin. Bu, tarmoqda axborotlarni izlash, shuningdek, qo'shimcha ashyolar-ma'lumotlarning elektron ombori, kutubxona va zarur manbalarga murojaatlarni yaratishni ta'minlaydigan maxsuslashtirilgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqishni nazarda tutadi; pedagoglarning o'quv-uslubiy ishlari yangi darajaga chiqishga psixologiya va axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar, shuningdek, tinglovchi va internet foydalanuvchilari bilan hamkorlik qilishni ko'zda tutadi; virtual fazoda ashyolarni doimiy ravishda takomillashtirish va yangilash alohida ahamiyatga ega bo'lganligi uchun, "on line" ta'lim platformasi qandaydir ma'noda universal bo'lishi lozim. Bu o'qitishda faollashtiradigan uslub va texnologiyalarni foydalanishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz talim tizimida masofaviy ta'limni qo'llash, o'qitish jarayoniga yangicha yondashish, shaxslarni ta'limning umuman mazmunidan iborat bo'lgan ijodiy salohiyatini va bilishga intilishlarini rivojlantirish imkoniyatini berib muvaffaqiyatli samara beradi. Shuning uchun bu boradagi nazariy, uslubiy va tashkiliy jihatlarni davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

4-mavzu. MUALLIFLIK DASTURLARI (KONSTRUKTOR DASTURLAR).

Reja:

4.1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha

4.2. Muallif huquqi va foydalanish shartlari.

4.1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha.

Kun sayin hayotimizning har bir sohasiga axborot – kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) joriy etilib, kasbiy faoliyatimiz samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kundalik hayotimizni nafaqat televizor, radio, balki mobil telefonlari, kompyuter, planshet kabi zamonaviy qurilmalarsiz o‘tkaza olmay qoldik, ulardan foydalanib, turmushimiz mazmunini boyitamiz, ish va ta‘lim olishdagi vazifalarimizni yengillashtiramiz. Hozirgi davrda barcha boshqa sohalar qatorida talim tizimida ham turli fanlarni o‘qitishda AKT imkoniyatlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. AKT nafaqat talabalarda bilim va malakalarini shakllantirishga, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga oid qiziqishlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Keyingi davrlarda ko‘plab psixologik va ilgor pedagogik sohalarda chop etilayotgan maqolalarda, AKT talabalarlarning bilimi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi haqidagi fikrlar ta‘kidlanayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. AKT imkoniyatlaridan foydalanish ta‘lim jarayonida beriladigan axborotlar doirasini boyitish va talabalar tomonidan qiziqish bilan o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Ta‘lim jarayoniga AKTning joriy etilishi bilan zamonaviy axborot muhitiga xos bo‘lgan ta‘limga yangi cha yondashuv shakllana boshladi. YUNESKO AKT ta‘limning ochiqligi va haqqoniyligini ta‘minlashga, o‘qitish va o‘qitish sifatini oshirishga va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, tegishli siyosat, texnologiyalar va imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda, AKT ta‘limni boshqarish, yetakchilik va ma‘muriyatni yaxshilashga yordam beradi.

YUNESKO ta‘limda AKTdan foydalanish yo‘llariga har tomonlama yondashadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta‘lim sohasidagi kirish, qo‘shilish, tenglik va sifat masalalarini hal qiladigan aloqa va axborotlashtirish, ta‘lim va tabiiy fanlar sohalarining birgalikdagi faoliyatiga katta e‘tibor qaratmoqda. YUNESKO ning ta‘limda AKT dan foydalanish dasturlariga quyidagilar kiradi:

- ta‘limda mobil o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha salohiyatni oshirish;
- o‘qituvchilarga AKTdan kasbiy faoliyatining barcha jabhalarida foydalanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni, “O‘qituvchilar uchun AKT vakolat doirasi” kabi vositalardan foydalangan holda o‘rgatish;
- ochiq litsenziyalar orqali qayta foydalanish uchun mavjud bo‘lgan ko‘p tilli ta‘lim resurslari va dasturiy ta‘minotini yaratish va foydalanishni

ragʻbatlantirish (ochiq taʼlim resurslari OER; bepul manbali dasturiy taʼminot BOOOOIK);

- taʼlimda AKTdan foydalanish boʻyicha statistik maʼlumotlarni yigʻish va koʻrsatkichlarni ishlab chiqish.

Pedagogik taʼlim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish masofaviy oʻquv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarining birlashuvini, pedagoglar oʻrtasida vazifalarning taqsimlanishini, taʼlim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samara dorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) – kompyuter texnologiyalari yordamida oʻquv jarayonini qisman yoki toʻliq avtomatlashtirish uchun moʻljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular taʼlim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning oʻqitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: oʻquv fani boʻyicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yoʻnaltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik taʼminot, qoʻshimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- oʻrgatuvchi dasturlar – talabalarining bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilim larni oʻzlashtirishga yoʻnaltiradi;

- test dasturlari - egallangan bilim, koʻnikma va malakalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qoʻllaniladi;

- mashq qildirgichlar - avval oʻzlashtirilgan oʻquv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

- oʻqituvchi ishtirokidagi virtual oʻquv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Dasturiy taʼminotning «amaliy dasturlar paketi (ADP)», «uskunaviy pedagogik vosita (UPV)», «oʻquv pedagogik dasturi (OʻPD)», «avtomatlashtirilgan oʻqitish tizimi (AOʻT)», «oʻqitishning yangi axborot texnologiyasi (OʻYaAT)» kabi atamalar bilan qayd etish, bir obʻektga turlicha nom berish tadqiqotchilarning oʻzaro fikr almash inuviga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Biz bundan keyin taʼlim jarayonida qoʻllanadigan dastur vositalarini pedagogik dasturiy vositalar (PDV)» atamasi bilan qayd etamiz. Zero, mashgʻulot jarayoni yaxlit bir tizim boʻlib, u ham maʼlumotlarni bayon qilish, ham namoyish qilish, ham mashq qildirish, ham nazorat qilish jarayonlarini oʻz ichiga oladi. Shu bois mashgʻulot jarayonida foydalanish mumkin boʻlgan dastur vositalarining barcha turlarini yaxlit bir tizim sifatida qarab umumiy nom bilan PDV deb aytish maqsad ga muvofiq hisobalanadi. Pedagogik dasturiy taʼminotni

rivojlantirishni baholash, birinchi navbatda, pedagogik dasturiy ta'minotning asosiy tushunchalarini, tasnifi va turlarini o'rganish kerak.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish bosqichlari va ularga qo'yiladigan talablar:

Pedagogik dasturiy vositalar –kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha va yordamchi vositalar kiradi. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish bir nechta bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichda pedagogik loyihalashtirish amalga oshiriladi. Bunda maqsad, pedagogik vazifalar aniqlashtiriladi, didaktik imkoniyatlardan kelib chiqib o'qitishning mazmuni va tuzilmasi tahlil qilinadi.

Ikkinchi bosqichda metodik loyihalashtirish bajariladi. Mazkur bosqichda ilmiy nazariy ma'lumotlarni o'quv materiallariga aylantirish, o'quv matnlari, illyustratsiyalar, grafik ma'lumotlar shakllantiriladi. O'qitishning maqsadi, metodi va vazifalariga mos o'quv materiallarining shakllari ishlab chiqiladi, elektron o'quv materiallaridan lokal, tarmoq, masofaviy ta'lim kabi foydalanish sohalari aniqlashtiriladi.

Uchinchi bosqichda pedagogik dasturiy vositalarni shakllantirish uchun zarur dasturiy vositalar yaratiladi yoki tanlanadi. Bunda foydalanuvchi va kompyuter o'rtasidagi muloqot metodlari, dasturiy vosita qobig'i va muhiti qiyosiy tahlil qilinadi.

To'rtinchi bosqichda pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga pedagogik texnologiyalar elementlari kiritiladi. O'quv jarayonida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish metodikalari loyihalashtiriladi. Foydalanuvchi va kompyuter o'rtasidagi muloqot ssenariysi yaratiladi, teskari aloqa, bilimlar diagnostikasi, o'qitish natijalarini taqdim etish shakllari ishlab chiqiladi.

Beshinchi bosqichda berilgan pedagogik xossalarga ega pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqiladi. Makur jarayonda pedagogik dasturiy vositalarning boshqaruv elementlari yaratiladi, fan bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Oltinchi bosqichda yaratilgan pedagogik dasturiy vositalar o'quv jarayoniga tatbiq etiladi, ularning dasturiy va metodik tarkibiy qismlariga zarur o'zgartirish va tuzatishlar kiritiladi. Pedagogik dasturiy vositalarning joriy etilishi natijalari tahlil qilinadi, pedagogik imkoniyatlari aniqlashtiriladi.

Barcha pedagogik dasturiy vositalarni ikki guruhga ajratish mumkin: an'anaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab-quvvatlovchi vositalar; "O'qituvchi-kompyuter-o'quvchi" uch elementli pedagogik tizim texnologiyalari. Birinchi guruh pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan tizim talablari pedagogning samarali o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish bilan bog'liq vazifalaridan kelib chiqadi. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratiladi.

Hozirda video ma'ruzalarni yaratishda qo'llaniluvchi ko'plab dasturiy vositalar mavjud. Jumladan, **Adobe Captivate dasturi**. Bu dastur o'zining foydalanishdagi qulayligi va shaxsiy kompyuterga xos parametrlarga yuqori talablar qo'ymasligi bilan ham boshqa shu kabi dasturiy vositalarga nisbatan afzalroqdir.

Quyida Adobe Captivate dasturidan foydalanish uchun shaxsiy kompyuter parametrlariga qo'yiluvchi talablar sanab o'tilgan:

- Operatsion tizim: Windows 2000G'XPG'VistaG'7
- Protsessor: Pentium IV 1 gGs va undan yuqori
- Tezkor xotira: 1024 Mb
- Dasturni o'rnatish uchun doimiy xotiradan 3Gb xajmdagi joy va loyihalarni yozish uchun joy
- Videokarta 256 Mb va undan yuqori
- Onlayn xizmat ko'rsatish uchun internet bilan bog'lanish
- Istalgan internet brauzeri Adobe Captivate dasturi Power Point (Microsoft Office) fayllarini import qilish bilan birga .SWF formatdagi video, musiqa yordamida interaktiv prezentatsiya (taqdimot) fayllarni yaratadi.

4.2. Muallif huquqi va foydalanish shartlari.

Mualliflik huquqi - keng ma'noda - fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, foydalanish va ququqiy himoya qilishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi; fuqarolik huquqining bir bo'limi. Top ma'noda - asar muallifiga tegishli bo'lgan vaqonunlarda mustahkamlanib qo'yilgan shaxsiy va mulkiy huquklar tizimini tashkil etadi. Mualliflik huquqi – bo'yicha munosabatlar har bir davlatga xos qonunlar va xalqaro konvensiyalar b-n tartibga solinadi. Mualliflik huquqi quyidagi biron-bir ob'ektiv shaklda bo'lgan oshkor qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tatbiq etiladi: yozma (qo'lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo); og'zaki (omma oldida so'zlash, omma oldida ijro etish va hokazo); ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va hokazo); tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino, tele-, video- yoki fotokadr va

hokazo); hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, inshoot va hokazo); boshqa shakllardagi. Mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi. Mualliflik huquqi ob'ektlarining turlari masalan: barcha turdagi kompyuterlar uchun dasturlar, shu jumladan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari;

Mualliflik huquqining himoya belgilari: Alohida mualliflik huquqining egasi o'z huquqlaridan xabardor etish uchun asarning har bir nusxasida aks ettiriladigan va quyidagi uch unsurdan iborat mualliflik huquqining himoya belgisidan foydalanishi mumkin: **aylana ichiga olingan lotincha "S" harfi; alohida mualliflik huquqlari egasining ismi (nomi); asar birinchi marta e'lon qilingan yil.** Mualliflik huquqining himoya belgisida ko'rsatilgan shaxs, basharti boshqa hol isbotlanmagan bo'lsa, huquq egasi hisoblanadi.

Quyida mualliflik dasturiy ta'minotlarining imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. **Articulate Storyline** kurslar yaratish uchun mo'ljallangan eng mashhur dasturlardan biri bo'lib, u moslashuvchan, foydalanishda qulay va turli maqsadli kurslar yaratish uchun ishlab chiqilgan. Articulate Storyline -uch utilitli (Presenter, Quizmaker, Engage) paket, o'rgatuvchi kurslarni, taqdimotlar, testlar va kontentning boshqa shakllarini iPadda ko'rish va masofali ta'lim tizimlariga integrallanishi mumkin bo'lgan Flash va HTML5 formatlarda yaratish imkoniyatini beradi. Dastur murakkab interfaol ssenariylarni amalga oshirish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarni taklif etadi. Endi o'quv kursining murakkab interfaol ssenariysini yaratish uchun dastur tuzishni yoki Flashni qo'llashni bilish shart emas -Storyline buning uchun barcha vositalarni taklif etadi.

Ushbu dasturning xususiyati oson o'zlashtirilishida, shuningdek, yaratilayotgan loyihalarning yorqin vizual uslubida: Articulate mahsulotlarida ishlangan roliklar boshqa e-learning muharrirlaridan ko'ra yanada zamonaviyroq va dinamikroq ko'rinadi. Dastur Microsoft Office 2007ga o'xshash interfeysga ega, ishlab chiquvchilar foydalanuvchilar o'rganishlari oson bo'lishi maqsadida tashqi ko'rinishini PowerPointga maksimal o'xshashligini ta'minlaganlar. Yuqorida buyruqlar to'plamidan iborat klassik Ribbon-panel joylashgan. Barcha turdagi multimediyali kontentlar: video, flash, ovoz, veb-obyektlarni qo'yishni qo'llab-quvvatlaydi. Barcha ko'p tarqalgan video (flv, avi, wmv, mov, mpeg, dv, 3g) va ovoz (mp3, wma, wav, m4a, aac, aiff, ogg) formatlari importlanadi, bundan tashqari, Internetdagi rolikning HTML-kodini yoki veb-kameradan video-yozish, ovozni esa mikrofondan yozib qo'yish mumkin. SWF -roliklari ham muammosiz qabul qilinadi, bu esa boshqa multimediya muharrirlarining loyihalari bilan integratsiyalash bo'yicha

cheksiz imkoniyatlarni ochadi. Web-sahifalar slaydlarda freymlar ko‘rinishida aks etadi. Ulardan foydalanish mumkin va bu ham roliklarni loyihalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Articulate Storyline asosiy xususiyatlari:

-foydalanuvchining intuitiv interfeysi. Oddiy interfeys foydalanuvchini qo‘shimcha o‘qishini talab etmasdan kurslarni noldan boshlab yoki shablonlar asosida yaratish imkonini beradi. Interfeysning mantiq va ko‘rinishi Microsoft PowerPoint bilan o‘xshash;

-slaydlar shablonlari. Noldan boshlab yoki shablonlar yordamida slaydlar yaratish. Shablonlar o‘lchovlari sozlovlari oddiy. Kurslarning qo‘shimcha shablonlarini va slaydlarini E-Learning Heroes saytidan yuklab olish imkoniyati;

-personajlar. 47500 tagacha chizilgan va fotopersonajlarni, yuz ifodalarni va turish holatlarni slaydlarga qo‘shish;

-interfaollik. Muayyan harakatlarni qachon ishga tushurishni aniqlash uchun triggerlarni qo‘llash. Slayddagi komponentlar o‘rtasida birnecha o‘zaro ta‘sirilar yaratish uchun slaydlar qatlamlari bilan ishlash;

-slaydlarda generatsiya, tahrirlash va obyektlarning o‘zaro ta‘sirini nazorat qilish;

-holatlar va o‘zgaruvchilar. Ishtirokchi harakatlariga javob berish uchun obyektlarni sozlash imkoniyati. Misol uchun, bosilganda tugmacha rangini almashtirishi mumkin, personajlar -noto‘g‘ri harakatda yuz ifodasini o‘zgartirishlari va hokazo. Agar tinglovchi noto‘g‘ri javob bersa, unga qo‘shimcha savollardan yoki yanada soddaroq vazifalardan iborat slaydlar ochilishi mumkin;

-20 dan ortiq turli xil tipdagi savollar. Bundan tashqari, ixtiyoriy shakllar slayddagi ixtiyoriy obyekt yordamida savollar yaratish imkoniyatini beradi;

-drag-and-dropni qo‘llab-quvvatlaydi. Olib o‘tish bilan slaydga obyektlar qo‘shish;

-ekran holatlarini yozib olish. Yozuv elektron kurs bilan qanday ishlashni namoyish etadi;

-stimulyasiya DT. Storyline ekranini bir marotaba yozib olingandan so‘ng avtomatik ravishda, yozuvni bir necha qadamma-qadam yo‘riqnomalarga segmentlaydi. Yozuv osongina tahrirlanadi-hatolik bo‘lganda, uni qayta yaratish shart emas. Natijada tinglovchilar vazifalarning bajarilishini, shuningdek, ularning test muhitidan o‘tishini ko‘rib chiqishlari mumkin;

-HTML 5 va Flash texnologiyalarining, shuningdek, mobil qurilmalarini qo‘llab-quvvatlashi. Kurslarni iPad, shaxsiy kompyuterlar, noutbuklar, Android, iPad va hokazolarga moslashgan qurilmalar uchun turli formatlarda nashr etish;

-section 508, tilni o'ngdan chapga yozish, SCORM va AICC (hisobotlarda) standartlarini qo'llab-quvvatlash;

-kurs (avtomatik tarzda generatsiyalanadigan) daraxtini ko'rish imkoniyati;

- namoyishlarni yaratish vosita yetarlicha qulayligi, slayd tartibi bo'yicha o'ynash va video roliklarni yaratish imkoniyati bilan;

- chiroyli personajlarni tanlash imkoniyati (ularni sozlash mexanizmi qulay);

- yetarlicha qulay va tushunarli interfeysi, barcha asosiy masalalar ish maydonining o'zida yechiladi;

-qo'shimcha sozlovlarsiz foydalanish mumkin bo'lgan ko'pgina elementlar dizaynining sifatli shabl onlarning kiritilganligi;

-savollarning yagona bankini yaratish imkoniyati.

CourseLab yordamida yaratilgan ta'lim materiallari ishlatilish turiga qarab, elektron ta'limning quyidagi: AICC (<http://www.aicc.org>), SCORM 1.2 (<http://www.adlnet.org>) standartlariga mos keladi.

Lectora dasturi Ogayo shtatida joylashgan Trivantis Corporation jamiyatida 1999-yilda Timoti D. Loudermilk tomonidan yaratilgan. Hozirgi vaqtga kelib, dasturdan 64dan ortiq davlatlarda foydalanib kelinmoqda.

Lectora dasturi masofali ta'lim jarayonida elektron o'quv kontenti yaratish uchun va elektron o'quv majmualarini yaratish imkoniyatini beruvchi dastur hisoblanadi. Dastur asosan:

- masofali ta'lim kurslarini yaratishda;
- taqdimot fayllarini yaratishda;
- nazorat testlarini yaratishda;
- .ppt formatidagi fayllarini boshqa ta'lim formatlariga (SCORM yoki AICC) o'tkazishda;
- intellektual o'qitish kurslarini yaratishda keng foydalaniladi.

iSpring. Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida, aksariyat hollarda, Microsoft -PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Bunda taqdim etilayotgan material uni ko'rayotgan kishilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishiga yordam beradigan ko'plab imkoniyatlari mavjud. Bugungi kunda taqdimotni boshqa formatlarga o'zgartirib yuborish imkoniyatini beradigan dasturlar paydo bo'ldi.

«Richmedia» kompaniyasi tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beradigan dastur taklif etmoqda. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring Free, iSpring PRO va iSpring Presenter kabi variantlarga ega. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra Flashdagi, PowerPoint formatidagi konverterlar orasida eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring PRO va iSpring Presenter o'rtasidagi farq shundaki, ularning ikkinchisi

nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlarni kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi. iSpring dasturida yaratilgan content Pro versiyasi bilan solishtirganda Presenter versiyasida quyidagi imkoniyatlar mavjud: Taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotning faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi» (mazkur funksiyalar Publish dialogining Protection versiyasida mavjud);

- Video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- So'roq (nazorat)lar natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (iSpring instrumentlar panelidagi Quiz tugmachasi);
- masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC-mos keluvchi kurslarini yaratish;
- taqdimotni dastur darajasiga aylantirish uchun Action Script API.

Darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashrdir. Elektron darslik esa, yuqoridagi talablarni hisobga olgan holda, kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga, hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bolib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (multimedia – ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, talaba (talaba, tinglovchi) ni «ekran olamida» stereo nusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida mualliflik dasturiy ta'minotlari keng qo'llanilmoqda. O'tilayotgan fanlar bo'yicha Oliy ta'lim muassasalarida shunday dasturlardan foydalanib, multimediali ma'ruzalar kiritilishi bilan talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari oshirilishiga erishish mumkin.

Nazorat savollari

1. Pedagogik dasturiy vosita o‘zi nima?
2. Pedagogik dasturiy vositalar dastavval qanday atamalar bilan yuritilgan?
3. Pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar?
4. Pedagogik dasturiy vositalarning ta‘limda tutgan o‘rni va ahamiyati?
5. Mualliflik dasturiy ta‘minotlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Ushbu dasturiy vositalarining ta‘lim jarayonida tutgan o‘rni?
7. Lectora dasturining interfeysi haqida gapirib bering?
8. Articulate dasturining afzalliklari nimalardan iborat?
9. CourseLab dasturiy vositaning kamchiliklari?
10. iSpring dastur muhiti haqida nimalarni bilasiz?
11. iSpringni boshqa test yaratuvchi dasturlardan farqli jihati?
12. iSpring dasturida test yaratish ketma-ketligini ko‘rsatib o‘ting?
13. Qaysi mualliflik dasturlarida talabalar bilimini baholash maqsadida test o‘tkazish imkoni mavjud emas?

TESTLAR

O'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat usuli to'g'ri keltirilgan qatorni toping?

Ta'lim metodi;

Ta'lim vositasi;

Ta'lim tamoyili;

Ta'lim shakli.

Guruhlashtirish, reja tuzish, tayanch tushunchalarni aniqlash, mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish, qayta bayon etish, tushunchalarni boyitish, pedagogik vaziyatlarni hal qilish, turkumlashtirish, sxemalashtirish. Ular...

Shaxs kreativligini rivojlantiruvchi metodlar;

Shaxs kreativligini rivojlantiruvchi vositalar;

Shaxs kreativligini rivojlantirish yo'llari;

Shaxs kreativligini rivojlantiruvchi ta'lim shakllari.

"Muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak maxorat, san'at darajasida tashkil etilishi" keltirilgan ta'rifga mos tushunchani toping?

Texnologiya;

Novatsiya;

Innovatsiya;

Modernizatsiya.

Lug'aviy jihatdan "competence" tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?

Qobiliyat;

Temperament;

Xarakter;

idrok.

Pedagogik faoliyatda sportchilarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash qanday nomlanadi?

pedagogik relaksatsiya;

pedagogik refleksiya;

pedagogik deontologiya;
pedagogik texnika.

O'zini o'zi hissiy boshqarish; pantomimika; mimika; jest (qo'l, oyoq harakat)dan o'rinli foydalanish; nutq texnikasi; alohida so'z yoki ifodalarni ifodalash sur'ati (ritmika). Ular nimaning asosiy turlari sanaladi?

pedagogik texnikaning;
nutq texnikasining;
pedagogik bilimdonlikning;
pedagogik nazokatning.

Kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan orttirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui qanday nomlanadi?

pedagogik tajriba;
pedagogik qobiliyat;
pedagogik malaka;
pedagogik ko'nikma.

Pedagogning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik, mutanosiblik nimani ifodalaydi?

pedagogning imidjini;
pedagogning qobiliyatini;
pedagogning obro'sini;
pedagogning nazokatini.

"Mahorat" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

arabcha so'zdan olingan bo'lib, "mohirlik", "ustalik", "epchillik" degan ma'noni anglatadi
lotincha so'zdan olingan bo'lib, "loyiq" "mos kelmoq" degan ma'noni anglatadi
inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi
yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "men o'rgataman", "men o'qitaman" degan ma'noni anglatadi

Biror bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish qanday nomlanadi?

mahorat
bilim
ko'nikma
malaka

“Kreativlik” tushunchasining lug‘aviy ma’nosiga to‘g‘ri ta’rif keltirilgan qatorni toping?
shaxs ijodkorligi;
yaratish;
o‘zgartirish kiritish;
yangilik kiritish.

Shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyati qanday nomlanadi?
Qobiliyat;
Malaka;
Mohirlik;
ko‘nikma.

Didaktik, akademik, perseptiv, nutqiy, tashkilotchilik, avtoritar, kommunikativ kabi qobiliyatlar qanday qobiliyatlar turlariga kiradi?
pedagogik qobiliyat;
jismoniy qobiliyat;
aqliy qobiliyat;
psixologik qobiliyat.

Kommunikativ qobiliyat nimada namoyon bo‘ladi?
muomala va muloqot o‘rnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati;
o‘quvchining kelajakda qanday inson bo‘lishini tasavvur qilish qobiliyati;
oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olish qobiliyati;
o qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish qobiliyati.

Perseptiv qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish qobiliyati;
muomala va muloqot o‘rnata olish qobiliyati;
o‘z harakatlarining oqibatini ko‘ra bilish qobiliyati;
o‘quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish qobiliyati.

Pedagogik texnika qanday komponentlardan iborat?
o‘zini boshqara olish; shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish;
o‘quv guruhi yoki jamoani uyushtirish; jamoani boshqarish;

pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish; ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish;
nutqiy qobiliyat; muomala madaniyatiga roiya qilish;

Shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiradigan ijodiy qobiliyati qanday nomlanadi?
Kreativlik;
Eruditsiya;
Intuitsiya;
evrika.

O'zini tavakkal qilishdan olib qochish; fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish; shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi; boshqalarga tobe bo'lish; har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash. Ular qanday omillar sanaladi?
shaxs intuitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi;
shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi;
shaxs qobiliyatini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi;
shaxs kreativligini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi.

Pedagogning kreativ potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlarni ko'rsating?
tashabbuskorlik, kreativ qobiliyatga egalik, kreativ faollik, izlanuvchanlik;
tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatga egalik, ijtimoiy faollik, izlanuvchanlik;
hissiyotga boylilik, kreativ qobiliyatga egalik, fantaziyaning boyligi, izlanuvchanlik;
tashabbuskorlik, kreativ qobiliyatga egalik, dunyoqarashning kengligi, tirishqoqlik.

Pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratishi, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati qanday nomlanadi?
pedagogik kreativlik;
pedagogik sezgirlik;
pedagogik ijodkorlik;
pedagogik novatorlik.

GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<p style="text-align: center;">Kreativlik</p> <p style="text-align: center;">Creativity</p>	<p>(lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.</p>	<p>an ability of an individual characterizing readiness for producing new ideas and an independent factor comprising creative skills</p>
<p style="text-align: center;">Kreativ pedagogika</p> <p style="text-align: center;">Creative pedagogy</p>	<p>1) pedagogda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish;</p> <p>2) talabalarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, Pedagog kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o‘rganuvchi fan</p>	<p>1) developing teacher’s creative approach toward organizing educational process and skills of positive solving of existing pedagogical problems;</p> <p>2) a science about developing students’ positive and independent attitude toward mastering the learning materials, promotion of new ideas when fulfilling assignments; covering professional training basics based on the step by step development, studying issues of development individual’s creativity in accordance with peculiarities of different age stages.</p>
<p style="text-align: center;">Kreativlikning rivojlanish bosqichi</p> <p style="text-align: center;">Stage of development of</p>	<p>muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi.</p>	<p>a level of development of certain creative skills</p>

creative		
Bunyodkor pedagog Creative personality	ham jarayon, ham natija sifatida ob'ektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan Pedagog.	an individual who carries out objective creativity as a process and as a result and produces high quality creative products
Kreativ pedagog Creative personality	jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor Pedagog.	an individual who is ready to express creativity as a result or within a process, who tends to come up with nontraditional solutions to the problems, to promote novelties and to bring creative outcome.
Davrlashtirish Periodization	(yunon. "peridos" – "doira bo'ylab aylanish") – muayyan hodisani o'zida qandaydir yakunlangan jarayonni qamrab olgan ma'lum vaqt birliklariga ajratilishi.	(from Greek l. "peridos" – gyre, helix,) – division of a certain phenomenon into units of time that comprise a completed process
Kasbiy-ijodiy imkoniyat Professional and creative ability	1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o'zlashtirganlik; 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; 4) kasbiy-ijodiy layoqat va Pedagogiy sifatlarining rivojlanganligi.	1) possessing professional competence and skills; 2) mastering basics of professional creativity methodology; 3) level of development of creative thinking; 4) development of professional and creative tendency and personal qualities.
Kasbiy-ijodiy faoliyat Professional and creative activity	mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.	an innovative behavior or an activity of a specialist characterizing his success in solving professional issues in a creative way.

<p>Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi</p> <p>Methodology of professional creativity</p>	<p>ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob'ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limot.</p>	<p>a doctrine about logical organization and composition of a creativity as an object of a process and result in the form of attitude toward the distinct types of professional activity, methods and means.</p>
<p>“Keys-stadi” texnologiyasi</p> <p>Case study technique</p>	<p>(ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya</p>	<p>a technique that allows students to develop skills of identifying the best solution to the context by analyzing certain, real or non-authentic problem-based situations.</p>
<p>Kreativlikning rivojlanish davri</p> <p>Period of development of creativity</p>	<p>ma'lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga yetgan qandaydir vaqt birligi</p>	<p>a time unit of complete of certain creativity skills development</p>
<p>Kreativ pedagogni tayyorlash</p> <p>Training a creative individual</p>	<p>ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida Pedagogda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni</p>	<p>teaching to be creative as well as essence of development of individual's creative skills during a process of creative expressing of himself.</p>
<p>Kreativ qobiliyat</p> <p>Creative skills</p>	<p>Pedagogning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati</p>	<p>an individual peculiarity of a person that identifies a possibility of organizing creative activity and providing its effectiveness.</p>

Ijod Creative work	ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.	a results of a work acknowledged by a society or a certain group of people on subject's novelty, significance and usefulness.
Ijodiy tafakkur Creative thinking	tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.	a type of thinking that expresses the organization of creative work and predicts its results.
Ijodiy topshiriqlar Creative assignments	muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.	a system of issues intended to solve based on the systematic analysis of problem-based cases.
Ijodkorlik Creativeness	muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi Pedagog faoliyati va uning natijasi.	an individual's activity and its result that identify significance and usefulness of novelties.
Ijodkor Pedagog Creative personality	ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega Pedagog.	an individual who successfully carries out a creative process and possesses certain creative result.
Ijodkor Pedagogni shakllantirish Training a creative persponality	kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega Pedagogni shakllantirish hamda rivojlantirish	formation and development of an individual's skills on producing creative ideas based on the experience of professional and creative activity.
Ijodiy qobiliyat Creative ability	ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati	an individual peculiarity demonstrated in assessing creative activity and its effectiveness.

<p>Tabaqalashtirish</p> <p>Differentiation</p>	<p>(lot. “diferentia” – “farqlanish”, “darajalanish”) – butunning turli bosqich yoki darajalarga ajratilishi.</p>	<p>separation of a whole into various levels or stages.</p>
<p>O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish</p> <p>Creative self-activation</p>	<p>Pedagogning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi</p>	<p>development and absolute demonstration of abilities in individual’s creative activity</p>

FOYDALANILGAN MANBAA VA ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi . Toshkent: O‘zbekiston. – 2022y. 458 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 592b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 400b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 400b.

II. Normativ - huquqiy hujjatlar:

5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmish tarzini keng tadbiq etish va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakillantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5713331>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2025-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori. <https://lex.uz/docs/5713410>
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassisلامي qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 335-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3863838>

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezgin” – 2022., 72b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
3. Dexkambayeva Z.A., Pulatov J.A. Sport ta'limida innovation pedagogik texnologiyalar. T.: Printerhaus, 2021 .- 134 b.
4. Golish L. V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
5. Golish L.V. Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
6. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.
7. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari .- T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
8. Muxamedov O'. X., Usmonboeva M. H., Rustamov S. S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. o'quv-uslubiy tavsiyalar. – T.: 2012.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
10. Tursualiyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o'qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo'llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.
11. Yeldasheva G., Karimova G. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma. / T.: Lesson press, 2020
12. Yoqubova D.M., Usmanova Sh.Sh. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – T.:Ilmiy texnika axboroti – press nashriyoti, 2020.- 200 b.
13. Andriadi I.P. Основы педагогического мастерства / 2-e izd. – M.: NITS INFRA-M, 2016. – 200 s. – ISBN 978-5-16-011222-0
14. Pecherkina A.A. Razvitie professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika: monografiya / A.A. Pecherkina, E.Ye. Simanyuk, E.L. Umnikova. – Yekaterinburg: Ural. gos. ped. un-t., 2011. – 233 s.
15. Yamaletdinova G. A. Pedagogika fizicheskoy kultury i sporta: kurs leksiy: – Yekaterinburg: Izd-vo Ural. un-ta, 2014. - 244 s.
16. Маннанова Н.Х. Ўзбекистонда педагог кадрлар малакасини ошириш тизимида масофавий таълимнинг шаклланиши ва ривожланиши. (Phd). ...дис. – Тошкент, 2019. – 143 б.
17. Alkarov E.M. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish. (PhD)... diss. – Toshkent, 2021. – 140 b.

18. Sheraliyev O.Sh. Masofaviy ta'lim tizimida tinglovchilar bilim darajasini nazorat qilishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish metodikasi. (magistr)... diss. – Qo‘qon, 2021. – 82 b.

19. Muslimov N.A. «Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi» /Monografiya. -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

IV. Elektron ta'lim resurslari:

1. <http://www.minsport.uz>
2. <http://www.sportedu.uz>